



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT” fakulteti

“KASB TA'LIMI” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Fermer xo`jaliklarida buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish

Himoyaga qo`yiladi:

“Kasb ta'limi” kafedrası mudiri

Jabbarov U.R. _____

_____ sonli bayonnomasi

“_____” _____ 2011 y.

Iqtisodiyot fakulteti dekani

prof. Salaev S.K. _____

Bajardi:

Razzakov Ollabergan

Ilmiy rahbar:

o`q. Jabbarov U.R.

Urganch – 2011 y.

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

«KASB TA'LIMI» kafedrası

“___” _____ 2011 y.

Urganch sh.

**Bitiruv malakaviy ishi dastlabki himoyasi
bo'yicha komissiya a'zolari majlisi ___ sonli**

B A Y O N N O M A S I

Komissiya a'zolari:

1. _____
2. _____
3. _____

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri

Jabbarov U.R. _____

“___” _____ 2011 y.

KUN TARTIBI

Eshitildi: _____

Qaror qilindi: _____

Imzolar: 1. _____ 2. _____ 3. _____

Urganch – 2011 yil

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Kasb ta’limi (Buxgalteriya hisobi va audit)” yo`nalishi bitiruvchisi Ollabergan Razzakovning “Fermar xo`jaliklarida buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAVSIYANOMA

Xizmat ko`rsatish sohalari ob'ektlarini bozor iqtisodi tamoyillari asosida tashkil etish, birinchi navbatda yangi fermer xo`jaliklari tuzilayotgan hududlarda amalga oshirish, natijada qishloq xo`jaligi o`tish davrining murakkab bosqichlarida o`z oldiga qo`yilgan vazifalarni bajarish kunning muhim masalasidir.

Bitiruvchi Ollabergan Razzakovning bitiruv malakaviy ishi ham aynan shunday dolzarb masalaga bag`ishlangan bo`lib, ish kirish qismi, 6 ta rejadan iborat 2 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishi doirasida fermer xo`jaligida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning umumiy qoidalari va vazifalari belgilab berilgan, dehqonchilikda va chorvachilikda xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash tartibi tadqiq qilingan. Auditorlik faoliyati to`g`risida tushuncha, auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari ochib berilgan, tovar moddiy zaxiralarning xarakati va ulardan foydalanish hisobi auditi, fermer xo`jaliklarida moliyaviy natijalarini tahlil qilish va uni takomillshtirish bo`yicha tavsiyalar berildi.

Bitiruv malakaviy ishi ayrim juz`iy kamchiliklardan ham xoli emas. Ammo, ushbu kamchiliklar bitiruv malakaviy ishining ilmiyligini, dolzarbligini va nazariy ahamiyatini aslo pasaytirmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Ollabergan Razzakovning “Fermar xo`jaliklarida buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi unga qo`yiladigan talablarga javob beradi va ishni Davlat Attestasiya Komissiyasi oldida himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

o`q. U. Jobborov

**Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot
fakulteti “Kasb ta’limi (Buxgalteriya hisobi
va audit)” yo`nalishi bitiruvchisi Ollabergan
Razzakovning “Ferma xo`jaliklarida
buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida barcha sohalar kabi qishloq xo`jaligida ham ahamiyatli o`zgarishlar sodir bo`ldi. yer munosabatlarida yangi tamoyillar joriy qilindi. Ferma xo`jaliklarini jipslashtirish va ularda ekin maydonlarini, bog` va tokzorlarni tanlov asosida uzoq muddatga ijaraga berish amalga oshirila boshlandi. yerni ferma xo`jaliklariga 50 yilga va dehqon xo`jaliklariga umrbod foydalanishga berish tizimi yaratildi.

Ollabergan Razzakovning bitiruv malakaviy ishi ham aynan ana shunday dolzarb muammoga bag`ishlangan bo`lib, ish kirish qismi, 2 ta bob, 6 ta rejadan, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan tashkil topgan.

Tadqiqot ishida ferma xo`jaliklarida buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish asoslari tadqiq qilinib, ularni takomillashtirishga qaratilgan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishi ayrim kamchiliklardan xoli emas, lekin bu kamchiliklar bitiruv malakaviy ishining ilmiyligini, dolzarbligini aslo pasaytirmaydi.

Shularni e`tiborga olgan holda, men ushbu bitiruv malakaviy ishini oliy o`quv yurti talablariga to`liq javob beradi va Davlat Attestatsiya Komissiyasi oldida himoya qilishga loyiq, deb hisoblayman.

Taqrizchi, “Turizm”

kafedrasi o`qituvchisi:

B. Ollanazarov

KIRISH

1-BOB. FERMER XO`JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

- 1.1. Fermer xo`jaligida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning umumiy qoidalari va vazifalari
- 1.2. Dehqonchilikda xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash
- 1.3. Chorvachilikda xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash

2-BOB. FERMER XO`JALIKLARIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TASHKIL KILISH

- 2.1. Auditorlik faoliyati to`g`risida tushuncha, auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari
- 2.2. Tovar moddiy zahiralarining xarakati va ulardan foydalanish hisobi auditi
- 2.3. Fermer xo`jaliklarida moliyaviy natijalarini tahlil qilish va uni takomillshtirish yo`nalishlari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, tarkibiy jihatdan diversifikasiyalash va modernizasiyalash jarayonlari bilan birgalikda, qishloq xo'jaligini talablar darajasida tashkil etish masalasi ham muhim o'rin egallaydi.

Bunday vaziyat fermer xo'jaliklari faoliyati buxgalteriya hisobi va auditini samarali tashkil qilish bilan bog'liq muammolarning hal etish yo'llarini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu esa, tanlangan mavzuning dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Fermer xo'jaliklari faoliyatida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va auditini takomillashtirishning nazariy va uslubiy asoslari iqtisodchi olimlardan E.A.Arens, M.S.Erjenov, O.Bobojonov, R.D.Dustmuratov, A.A.Karimov, X.N.Musaev, M.Q.Pardaev, A.S.Sotivoldievlar tomonidan tahlil qilingan.

Ushbu olimlarning ilmiy va uslubiy ishlari nazariy va amaliy ahamiyatga ega. SHu bilan birgalikda, ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy maqolalari, darslik va o'quv qo'llanmalarida qishloq xo'jaligi buxgalteriya hisobi va auditini shakllantirish masalalari umumiy tarzda tadqiq etilgan.

BMI maqsadi: iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida fermer xo'jaliklari faoliyati buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

BMI vazifalari:

- fermer xo'jaligida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning umumiy qoidalari va vazifalarini o'rganish;

- dehqonchilikda xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- chorvachilikda xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- auditorlik faoliyatini xukukiy asoslash.
- tovar moddiy zaxiralarning xarakati va ulardan foydalanish hisobi auditini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalarini tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'nalishlarini ko'rsatish.

BMI ob'ekti: respublikamiz fermer xo'jaliklari.

BMI predmeti: fermer xo'jaliklari faoliyati buxgalteriya hisobini yuritish va auditini tashkil etish jarayonida sodir bo'ladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Ilmiy yangiligi:

- fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi
- fermer xo'jaliklarida auditorlik faoliyatini tashkil kilishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi

BMI tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi tarkibiy jihatdan kirish, ikkita bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot matni 68 betdan iborat bo'lib, 8 ta jadvalni o'z ichiga olgan.

1-BOB. FERMER XO`JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH ASOSLARI.

1.1. Fermer xo`jaligida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning umumiy qoidalari va vazifalari.

Fermer xo`jaligi - xalq xo`jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo`lib, u mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash vazifasini bajaruvchi agrosanoat kompleksining asosidir.

Hozirgi kunda agrosanoat kompleksida yangi istiqbolli uyushmalar - agrosanoat kombinatlari va birlashmalari, ishlab chiqarish tizimlari, agrofirmalar tarkib topdiki, ular ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilishni tezlashtirish, ishlab chiqarishni yanada integrasiyalashishiga erishish, mahsulotni qayta ishlash, saqlash realizasiya qilishda yo`l qo`yiladigan yo`qotishlarni kamaytirish Hamda mahsulotni iste'molchiga yetib borishni tezlashtirish imkonini beradi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga va xo`jalik yuritishning iqtisodiy uslublariga o`tishi fermer xo`jaligida ishlab chiqarishning o`sinh sur'atlariga ta'sirini kuchaytirib, barcha mehnat jamoalarini o`z ishlab chiqarish imkoniyatlaridan yanada samaraliroq foydalanishga undamoqda.

Shu bilan bir qatorda xalq xo`jaligining asosiy tarmoqlarida, shu jumladan, fermer xo`jaligida ishlab chiqarish samaradorligining pasayib borayotganligi, iqtisodiyotning inqiroz jarayoni davom etayotgan va mustaqil davlatlar o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarning izdan chiqqanligi asosan ichki imkoniyatlarni aniqlash va ulardan foydalanishni talab qiladi. Bunday vazifani bajarishda buxgalteriya hisobi, nazorat va xo`jalik faoliyatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda qabul qilingan qonun va nizomlar hamda boshqa me'yoriy xujjatlar xalq xo`jaligining barcha korxona va tashkilotlarida va turli mulkchilik sharoitida buxgalteriya hisobini yagonalashtirish hamda xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Bu bobda agrosanoat kompleksining asosiy bo'g'inlari bo'lmish davlat va jamoa xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uni yuritish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Hozirgi kunda sanoat va boshqa korxona hamda tashkilotlar qoshidagi yordamchi fermer xo'jalik bo'limlarini tashkil qilish va kengaytirish tobora rivojlanib bormoqda. Bu xo'jaliklarda ham Fermer xo'jaligi korxonalaridagi kabi buxgalteriya hisobi tashkil etiladi va yuritiladi. Ular uchun ishlab chiqarishning ikki asosiy tarmog'i - dexqonchilik va chorvachilik mavjudligi xosdir. Unda turli xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jaliklar ham bor.

Bu sub'ektlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning xususiyatlari Fermer xo'jalik ishlab chiqarishning o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Eng avvalo davlat xo'jaliklari va yordamchi xo'jaliklar-mulkchilikning davlat shakli, jamoa xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish vositalari esa jamoa-kooperativ (shirkat) mulkidir. Davlat va jamoa xo'jaliklaridagi qator farqlar zamini ana shundandir.

Fermer xo'jalik ishlab chiqarishning xususiyati ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi, xarajatlar jarayonining olinadigan mahsulot davriga mos kelmasligidadir. Masalan, jonli va buyumlashgan mehnat sarflari to'xtovsiz, butun yil mobaynida davom etadi, hosilni yig'ish, mahsulotni yetishtirish esa yilning ma'lum davriga to'g'ri keladi.

Fermer xo'jalik korxonalari uchun tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari qoldiqlarning sezilarli miqdorda mavjud bo'lishi xarakterlidir. Ishlab chiqarishning mavsumiylik xarakteri mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan notekis foydalanishga, sezilarli mavsumiy zaxiralarni yaratish zaruriyatiga olib keladi.

Mana shu xususiyatlar fermer xo'jalik korxonalarida buxgalteriya Hisobini tashkil etishning o'ziga xosliklarini belgilaydi. Ana shunday xususiyatlardan biri mahsulotning haqiqiy tannarxini yilning oxirida, ishlab chiqarish yilining yakunida aniqlashdir. Shuning uchun yil davomida olinayotgan mahsulot dexkonchilikda ham, chorvachilikda ham rejadagi tannarx yoki hisoblangan baho bo'yicha hisobga olinadi va kirim qilinadi, yil oxiriga kelib esa u haqiqiy tannarxiga yetkazib

to'g'rilanadi. Ana shundan keyingina xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari aniqlanadi.

Fermer xo'jalik korxonalaridagi buxgalteriya hisobi amaldagi schyotlarning yagona rejalariga asoslanadi. Jumladan, unda «Asosiy ishlab chiqarish» schyotida «Dexqonchilik», «Chorvachilik» kabi maxsus schyotlari ochiladi. Texnologik jarayonga aloqador bo'lgan bevosita xarajatlar sanoatdagi kabi «Asosiy ishlab chiqarish» kalkulyasiya schyotining tuzilishi hamda vazifasi bilan bir xil bo'lgan «Dexqonchilik» va «Chorvachilik» schyotlarining debetida Hisobga olinadi. Tayyor mahsulotni, shuningdek ayrim bajarilgan ish va xizmat (operasiya)larini hisobga olishning ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Bularni mazkur bobning tegishli bo'limlarida ko'rib chiqamiz. Korxonalar va tashkilotlarning yordamchi fermer xo'jaliklarida «Boshqa ishlab chiqarish va xo'jaliklar» schyotidan foydalaniladi, shunga ko'ra sub'ektning xarajatlari «Asosiy ishlab chiqarish», «Umumishlab chiqarish xarajatlari» va shu kabi schyotlarda aks ettiriladi.

Fermer xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritishda boshlang'ich xujjatlarning namunaviy shakllari, buxgalteriya registrlarining yagona shakllari, hisoblash ishlarini bajarishda hisobga olishning kompleks mexanizasiyalashgan va avtomatlashgan usullaridan foydalanadilar. Fermer xo'jaliklaridagi buxgalteriya hisobining asosan memorial-order, jurnal-order va jadval-avtomatlashgan shakllaridan foydalaniladi.

«Fermer xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini Hisobga olish va tannarxni kalkulyasiya qilish tartibi to'g'risida»gi Nizom fermer va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Bu nizomga ko'ra Fermer xo'jaligidagi xarajatlar xuddi sanoatdagidek, asosiy xarajatlar, xizmat ko'rsatish va boshqaruv xarajatlariga ajratiladi. Asosiy xarajatlarga urug' va ko'chat materiallari, xodimlarning ishlab chiqarishda qatnashgan va shirkat a'zolarining mehnat haqi, yonilg'i, oziqa, o'g'it va shu kabi sarflari kiritiladi. Ikkinchisiga umumishlab chiqarish (brigada, ferma, sex) xarajatlari va umumxo'jalik (sub'ekt bo'yicha umumiy) xarajatlari kiritiladi.

Shunga ko`ra xarajatlar, sanoatda bo`lganidek, bevosita va bilvosita xarajatlarga guruh lanadi.

Fermer xo`jaligida ishlab chiqarish xarajatlari ularning elementlari va kalkulyasiya moddalariga ko`ra turkumlanadi. Xarajat elementlari deganda o`z iqtisodiy tarkibiga ko`ra bir xil bo`lgan xarajatlar tushuniladi.

Xarajatlar moddalarining ro`yxati va ularning tarkibi Fermer xo`jaligi ishlab chiqarishi sarflarini hisobga oladigan tegishli moddalarda ko`rib chiqiladi.

Fermer xo`jaligida buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari:

- Fermer xo`jaligi korxonalari faoliyatining barcha bo`limlari bo`yicha rejalarni bajarish yuzasidan nazoratni ta`minlash;
- mehnat, moddiy (urug`, oziqa, yoqilg`i, o`g`it, xayvon, Fermer xo`jalik texnikasi) va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni nazorat qilish;
- ishlab chiqarish zaxiralari va mahsulotning saqlanishi hamda ulardan oqilona foydalanishni nazorat qilishdir.

Fermer xo`jaligida asosiy vositalarni hisobga olish xalq xo`jaligining barcha tarmoqlari (shu jumladan sanoat uchun ham) uchun belgilangan tartibda tashkil etiladi. Ammo asosiy vositalar tarkibidagi farqlar tufayli ayrim o`ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir.

Masalan, bu soxadagi barcha asosiy vositalarni fermer xo`jaligi ishlab chiqarishiga mo`ljallangan asosiy vositalar, fermer xo`jalik ishlab chiqarishiga mo`ljallanmagan asosiy vositalar va noishlab chiqarish asosiy vositalariga ajratiladi. Ishchi va mahsuldor chorva va boshqa hayvonlar alohida ajratiladi, shuning uchun ular alohida schyotlarda aks ettiriladi.

Asosiy vositalarning jamoa va davlat xo`jaliklaridagi bahosi sanoatdagi kabi belgilanadi. Joriy buxgalteriya hisobida va balansda asosiy vositalar boshlangich bahosida aks ettiriladi.

O`z xo`jaligida boqilgan, shuningdek chetdan xarid qilingan mahsuldor va ish chorva hayvonlarini asosiy vositalarga kirim qilishda jamoa va davlat xo`jaliklarida o`stirish hamda xarid qilishning (olib kelish sarflarini ham qo`shib)

haqiqiy tannarxida baholanadi.

Asosiy vositalar tarkibiga kiritiladigan ko'p yillik ekinlar yoshidan ka'tiy nazar (mevali bog'lar, tokzorlar, choy plantasiyalari, shuningdek ixota o'rmonlari va shu kabilar) ularni ekish (ko'chat materiali qiymatini ham qo'shib) parvarish qilish va o'stirishning haqiqiy xarajatlari bo'yicha hisobga olinadi.

Erlarni yaxshilashga yo'llangan kapital qo'yilmalar asosiy vositalarga joriy yildagi tegishli xarajatlarning haqiqiy summasi bo'yicha kiritiladi.

Asosiy vositalarga kirimlarni hisobga olishda namunaviy boshlang'ich xujjatlardan foydalaniladi. Ular qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, ko'p yillik ekinlarni qabul qilish va ularni foydalanishga topshirish dalolatnomalari, hayvonlarni bir guruh dan ikkinchisiga o'tkazish dalolatnomalari va shu kabilar. Har xil inventar ob'ektlarning o'z raqami bo'ladi. Bu ob'ektlar brigada, ferma va moddiy javobgar shaxslarga birlashtiriladi, bu holat asosiy vositalar bor bo'lgan, ulardan foydalanilayotgan joylar bo'yicha inventar ro'yxatlarida, xayvon va parrandani hisobga olish daftarlarida, buxgalteriyada esa inventar kartochkalarida qayd qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga va buxgalteriya hisobini yuritishning jahon standarti shakllariga o'tilishi munosabatlari bilan fermer xo'jaligi korxonalarida ham (xo'jalik yuritishning va mulkka egalik qilishning shaklsidan ka'tiy nazar) asosiy vositalarni hisobga olishda bir qator o'zgarishlar yuz berdi. Endilikda asosiy vositalarni xarid qilish, bunyod qilish, tashib keltirish va o'rnatish, maxsuldor va ish hayvonlarini asosiy vositalar tarkibiga o'tkazish va boshqa shu kabi xarajatlarni hisobga olish 0800 - «Kapital qo'yilmalar» schyotining debetida olib boriladi.

Debet 0110-0190 «Asosiy vositalar» schyotlari

Kredit 0810 «Kapital qo'yilmalar» schyoti

Mahsuldor hayvonlarga eskirish (amortizasiya) hisoblanmaydi, ish hayvonlariga esa eskirishni (amortizasiya) hisoblash boshqa barcha asosiy vositalardek amalga oshiriladi. Kapital va joriy ta'mirlash sanoat korxonalaridagidek hisobga olinadi.

Fermer xo`jalik korxonalarida asosiy vositalarni hisobdan chiqarish eskirish, tabiiy ofat, katta yoshli mahsuldor va ish hayvonlarini brakka chiqarish va ularni oborot vositalari tarkibiga kiritish, chorva hayvonlarining o`lishi va keraksiz ob'ektlarni sotish natijasida sodir bo`lishi mumkin.

Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish o`z-o`zini mablag` bilan bilan ta'minlash sharoitlariga o`tishga ko`ra maxsus ko`rsatma va qoidalar bilan chegaralanardi. Jamoa xo`jaliklarida asosiy vositalarni hisobdan chiqarish masalalari jamoa xo`jaligi a'zolari yoki vakillarining umumiy yig'ilishida xal etiladi. Foydalanishga yaroqsizligini aniqlash va ob'ektlarni hisobdan chiqarishni rasmiylashtirish maqsadlarida maxsus komissiyalar tuziladi.

Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish ularning ashyoviy tarkibiga ko`ra bino, inshoot, mashina, uskuna va transport vositalarini hisobdan chiqarish dalolatnomalari, hayvonlarni brakka chiqarish, ko`p yillik ekinlarni hisobdan chiqarish va boshqalar haqidagi dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Asosiy vositalarni balansdan chiqarishning sintetik hisobi yuritilganda sanoatdagi kabi ularning balansdagi qiymatiga 0110-0190 «Asosiy vositalar» schyotlari kreditlanib, 9210 «Asosiy vositalarning har xil chiqarilish va sotilishi» schyoti debetlanadi. Bir vaqtning o`zida balansdan chiqarilayotgan asosiy vositaning eskirish summasiga

Debet 0210-0290 «Asosiy vositalarning eskirishi»,

Kredit 9210 «Asosiy vositalarning har xil chiqarilishi va sotilishi» schyoti buxgalteriya provodkasi tuziladi.

Agarda hisobdan chiqarilayotgan asosiy vositaning qiymati to`la amortizasiyalashmagan bo`lsa, asosiy vositani tugatishdan ko`rilgan moliyaviy natija zarar (yo`qotish) sifatida quyidagi buxgalteriya yozuvida aks ettiriladi:

Debet 9900-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar»

Kredit 9210 «Asosiy vositalarning har xil chiqarilishi va sotilishi» schyoti.

Asosiy vositalar tugatilganda ham ularning boshlang`ich qiymatiga va eskirish summasiga yuqoridagi singari buxgalteriya provodkalari tuziladi. Ularni

tugatish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar turlari bo`yicha (moddiy va mehnat xarajatlari, ijtimoiy sug`urta va bandlik fondlariga ajratmalar hamda turli xizmatlar) 9210 «Asosiy vositalarning har xil chiqarilish va sotilishi» schyotining debetida aks ettiriladi. Tugatishdan olingan har xil yaroqli materiallar, ehtiyot qismlar foydalanish mumkin bo`lgan yoki sotish bahosida baholanib 1010-1090 «Materiallar» schyotlarining debetiga va 9210 «Asosiy vositalarning har xil chiqarilishi va sotilishi» schyotining kreditiga yoziladi. Bu oxirgi schyotning debet va kredit oborotlari taqqoslanib, asosiy vositani tugatishdan ko`rilgan moliyaviy natija - foyda yoki zarar aniqlanadi.

Asosiy vositalarni sotganda va bepul berganda ham boshlangich qiymatiga:

Debet 9210 «Asosiy vositalarning har xil chiqarilishi va sotilishi» schyoti.

Kredit 0110-0190 «Asosiy vositalar» schyotlari.

O`sha vaqtdagi eskirish summasiga:

Debet 0210-0290 «Asosiy vositalarning eskirishi» schyotlari.

Kredit 9210 «Asosiy vositalarning har xil chiqarilish va sotilishi» schyoti.

Sotilgan asosiy vosita uchun talab qilingan yoki kelib tushgan pul miqdori bozor bahosida baholanganligi uchun uning qoldiq qiymatiga ko`p hollarda mos kelmasligi mumkin. Shu sababli asosiy vositani sotishning moliyaviy natijasi ham yuqoridagi tartibda aniqlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo`jaligida asosiy vositalar (import, texnika vositalari, ko`p yillik o`simliklar maydoni) uzoq muddatli ijaraga berish yo`li bilan ham sotilishi va hisobdan chiqarilishi mumkin.

Asosiy poda (asosiy vositalar tarkibidan katta yoshli mahsuldor va ish Hayvonlari mahsuldorlikning kamayishi, kasallik, lat yeyish, sotish, so`yish va boshqa shu kabi sabablarga ko`ra chiqariladi.

Asosiy poda tarkibidan chiqarilgan va sotilgan hayvonlarning hisobi ham 9210 schyot orqali hisobga olinadi.

Hisobdan chiqarilgan hamda sotilgan hayvonlarning boshlang`ich (balans) bahosi 9210 schyotning debetida va 0100 schyotlarining kreditida aks ettiriladi.

Sotilgan hayvonlarning sotish bahosi 6200 schyotning debetida va 9210 schyotning kreditida, brak qilingan mahsuldor va ish hayvonlarining aniqlangan qiymati 1120 schyotning debetida va 9210 schyotning kreditida aks ettiriladi.

Sotilgan hayvonlar uchun kelib tushgan naqd pul 5010 pul mablag`lari 5110 va 5210 schyotlarning debetida 6010 yoki 7010 schyotning kreditida aks ettiriladi.

9210 schyotda sotilgan va hisobdan chiqarilgan mahsuldor va ish Hayvonlarining boshlang`ich bahosi bilan sotish yoki aniqlangan (vazniga, yoshiga va boshqa belgilariga qarab) bahosi taqqoslanib, moliyaviy natija aniqlanadi, agarda

Foyda olinsa debet 9210, kredit 9900, mabodo zarar ko`rilsa debet 9900, kredit 9210 schyotlari orqali buxgalteriyada aks ettiriladi.

1.2. Dehqonchilikda xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash

Dehqonchilik fermer xo`jaligining asosiy sohalaridan biri. Bu sohada fermer xo`jaligi yalpi mahsuloti shu jumladan chorva uchun ozuqa yetishtiriladi. Bu tarmoqda dala ishlari, polizchilik, bog`dorchilik, yem-xashak yetishtirish va shu kabilar tarkib topadi.

Dehqonchilikdagi hisobga olish ob`ekti - ekinlarning alohida turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari va ayrim ishlardir. Masalan, kuzgi boshqoli ekinlar guruh i, bahorgi bug`doy va boshqa bahorgi ekinlar guruh i, texnik ekinlar, kartoshka, sabzavot, poliz, oziqa ekinlarining bog`dorchilik va uzumchilik xarajatlari hisobga olishning mustaqil ob`ektlari hisoblanadi.

Kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlar hisoblash tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olishning alohida ob`ektiga ajratiladi. Bu xarajatlar alohida ekinlar bo`yicha bajariladigan ish turlari yuzasidan hisobga olinadi. Keyingi, boshlangan hisobot yilida aytib o`tilgan xarajatlar alohida ekin turlari tannarxiga taqsimlash yo`li bilan o`tkaziladi.

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotning chiqishi bo`linma,

brigada va shu kabilar bo'yicha hisobga olinishi kerak.

Bundan tashqari ekin turlari bo'yicha xarajatlar quyidagi kalkulyasiya moddalari bo'yicha hisobga olinadi:

1. Ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan birgalikda mehnatga haq to'lash xarajatlari.

2. Urug'lik va ekish materiallari.

3. O'g'itlar.

4. O'simliklarni himoya qilish vositalari.

5. Ish xizmatlari.

6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari.

7. Ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari.

8. Sug'urta to'lovlari.

9. boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga oid buxgalteriya yozuvi to'g'ri va tegishli tartibda rasmiylashtirilgan boshlang'ich xujjatlar - mexanizasiyalashtirilgan, ot va qo'l mehnatlarini hisobga olish varaqalari, o'g'it sarfi aktlari, mahsulot jo'natilganligi haqidagi nakladnoylar: registrlar: mahsulotni daladan olib chiqish yo'llanmalari, oziqa qabul qilish dalolatnomalari va shu kabilar asosida amalga oshiriladi. Brigada va bo'limlar bo'yicha guruh langan boshlang'ich xujjatlar ma'lumotlari asosida ish va xarajatlarni hisobga olish jurnali yuritiladi, so'ngra har oyda dehqonchilik bo'yicha ishlab chiqarish hisobotlari tuziladi (18 shakl). Hisobot ikki bo'limdan iborat bo'ladi. Uning birinchi bo'limida xarajatlar moddalari, rejadagi ekin tur (guruh)lari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari bo'yicha xarajatlar, ikkinchisida dehqonchilik mahsulotining chiqishi aks ettiriladi. Ishlab chiqarish hisobotlari tugallangan oydagi ma'lumotlarni ko'rsatib, yil boshidan o'suvchi yakunida yuritiladi. Hisobotlar asosida analitik hisob yuritiladigan mahsulotning chiqishi hisobi daftariga, qayd qilinadi, so'ngra 10 jurnal-orderga o'tkaziladi. Hisobga olishning mashinaga mo'ljallangan turlarida xarajatlar va mahsulotning chiqishini hisobga olishning vedomost-

mashinogrammalari ishlab chiqiladi.

Fermer xo'jaliklarida dehqonchilikdagi xarajatlar va mahsulotning chiqishini hisobga olishda «Asosiy ishlab chiqarish» schyotidan foydalaniladi. U ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini hisoblashga ham mo'ljallangan. Schyotning debetida yil davomida bevosita, yil oxirida esa yuqorida keltirilgan sarf moddalari bo'yicha bilvosita xarajatlar, kreditda esa yil davomida mahsulotning chiqishi rejadagi tannarxda aks ettiriladi. Yil yakunida esa rejadagi tannarx aniqlangan haqiqiy tannarxga yetkazib to'g'rilanadi. Yil boshida ushbu schyotning debet saldosi o'tgan yil xarajatlari bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni, yil oxirida esa kelgusi yil hosili uchun xarajatlar bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni anglatadi. «Dehqonchilik» schyoti bo'yicha analitik hisobi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish ob'ektlari bo'yicha ekin turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, ish turlari va xarajatlar moddalari bo'yicha yuritiladi.

Xarajatlarni alohida moddalar bo'yicha hisobga olish tartibini ko'rib chiqamiz. «Ijtimoiy sug'urta ajratmalari va mehnatga haq to'lash xarajatlari» moddasida bevosita ekin o'stirish bilan band bo'lgan ishchilar mehnatiga haq to'lash, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillarga haq to'lash hamda bu summalarga nisbatan hisoblangan tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalari hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshlang'ich xujjatlar asosida bevosita tegishli ekinlar va ish turlariga o'tkaziladi. qo'shimcha mehnat haqi summalari to'g'ri ish haqiga munosib taqsimlanadi. Bunda umumlashgan ma'lumotlar bo'yicha «Dehqonchilik» schyotining debetiga hamda «Mehnatga haq to'lash bo'yicha hisoblashishlar» va «Ijtimoiy sug'urta bo'yicha hisoblashishlar» schyotlarining kreditiga qayd qilinadi.

Yaqin yillar ichida davlat va jamoa xo'jaliklarining barcha ishlab chiqarish bo'linmalari mehnatini tashkil etishning pudrat usuliga, shu jumladan oila va yakka tartibdagi pudrat usuliga o'tkazilganligini unutmaslik kerak. Bu usulda ishlab chiqarishda qatnashuvchilarning barchasi, shu jumladan rahbarlar va mutaxassislarning ham mehnatiga haq to'lash yalpi daromadga bevosita bog'lik qilib qo'yildi, fermer xo'jalik xodimlari mehnatiga natural haq to'lashning

salmog'i ortadi, uni to'lash xajmi pirovard natijalarga qa'tiy bog'liq qilib qo'yiladi. Bunda xo'jalik ichidagi bo'linmalar o'rtasida o'zaro hisoblashishning chek shakli joriy etilib, bo'linmalar rahbarlar mahsulot uchun ham, xizmatlar uchun ham chek bilan hisoblashishni amalga oshiradilar.

Jamoa xo'jaligi mehnatkashlari ijtimoiy ta'minot markaziy fondiga ajratmalar ijtimoiy sug'urta ajratmalari singari aks ettiriladi, ammo yozuvlar chorakda bir marta «Dehqonchilik» schyotining debeti va «Sug'urta bo'yicha hisoblashish» schyotining kreditida aks ettiriladi.

Fermer xo'jalik tarmoqlarida moddiy resurslarni hisobga olish sanoatda materiallarni Hisobga olish singari tashkil etiladi.

Urug' va ekin materiallari bevosita belgisiga ko'ra «Dehqonchilik» schyotiga haqiqiy tannarxda «Urug'lar va oziqa» schyotining kreditidan o'tkaziladi.

Urug'larni ekishga tayyorlash, ularni ekish joyiga tashib keltirish xarajatlari urug'lar qiymatiga kiritilmaydi, balki ekinlarga tegishli xarajatlar moddalari bo'yicha o'tkaziladi.

«O'g'it» moddasida fermer xo'jalik ekinlari uchun tuproqqa solinadigan o'g'itlar, shu jumladan sanoatda ishlab chiqiladigan mineral, bakterial va boshqa o'g'itlar hamda organik o'g'itlar xarajatlari hisobga olinadi. Xarajatlar analitik hisobga olishda mineral va organik o'g'itlar bo'yicha alohida aks ettiriladi. O'g'itlarni tayyorlash va yerga solish xarajatlari bevosita muayyan Fermer xo'jalik ekiniga tegishli xarajatlar moddalari bo'yicha o'tkazilib, bu moddaga kiritilmaydi. O'g'itlar xarajatlari «Materiallar» schyoti yoki «Chorvachilik» schyotining kreditidan o'tkaziladi.

«O'simliklarni himoya qilish vositalari» moddasida begona o'tlar, fermer xo'jalik ekinlari zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashda ishlatiladigan pestisid, kimyoviy dorilar, gerbisid va boshqa kimyoviy, shuningdek biologik vositalarni xarid qilish va saqlash xarajatlari kiritiladi. xo'jalikning o'zi bu vositalar bilan ko'chatlar, ekinlarga ishlov bergandagi xarajatlar moddalari

bo'yicha ekinning tannarxiga o'tkaziladi.

«Ish va xizmatlar» moddasi o'z korxonasining ishlab chiqarish ehtiyojlarini qonduruvchi yordamchi ishlab chiqarishlarning xizmatlari hamda shu korxonaga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xarakteridagi xizmatlarga haq to'lash xarajatlari aks ettiriladi. yordamchi ishlab chiqarishni hisobga olish va ularni xarajatlarini mahsulot tannarxiga qo'shish tartibi mazkur bobning alohida moddasida yoritilgan.

«Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida bevosita ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlari kiritiladi. Ularga bu asosiy vositalarga xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish xarajatlari, amortizatsiyasi ajratmalari va tuzatish xarajatlari kiritiladi.

Dehqonchilikda aytib o'tilgan asosiy vositalarga shu tarmoqda bevosita mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan traktorlar, fermer xo'jalik mashina va uskunalari, issiqxona, turli omborlar va ishlab chiqarish binolari, asosiy meliorasiya vositalari, ko'p yillik ekinlar, ishlab chiqarish inventari va boshqalar kiritiladi.

Asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlariga asosiy vositalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnat haqlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari bilan. yonilg'i va moylash materiallari, yordamchi ishlab chiqarish, shuningdek chet tashkilotlar xizmatlari va boshqa xarajatlari kiritiladi.

Tuzatish xarajatlariga eng avvalo o'zining ta'mirlash ustaxonalarining xarajatlari kiritiladi.

Amortizasiya xarajatlarini yuqorida aytib o'tilgan asosiy vositalar bo'yicha amortizasiya ajratmalari tashkil qiladi. Amortizasiya ajratmalari har oyda alohida «Dehqonchilikda ishlatiladigan asosiy vositalar bo'yicha taqsimlangan amortizasiya» analitik schyotida qayd etib boriladi. Bunda «Dehqonchilik» schyoti debet va «Asosiy vositalarning eskirishi» schyoti kiritiladi. Yil oxirida asosiy vositalarning eskirish summasi ekin va ish turlari bo'yicha taqsimlanadi va bu

maxsus vedomost orqali rasmiylashtiriladi. Oldin «Yordamchi ishlab chiqarishlar» schyotida hisobga olingan joriy tuzatish xarajatlari amortizasiya summasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

«Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari» moddasida umumishlab chiqarish xarajatlari aks ettiriladi. Ularni hisobga olish va mahsulot tannarxiga kiritish tartibi shu bobning 5-moddasida yoritilgan.

«Sug`urta to`lovlari» moddasida fermer xo`jalik ekinlarining hosili va ko`p yillik ekinlar, fermer xo`jalik hayvonlari, quyon, asalari oilalari va shu kabilar bo`yicha davlat majburiy sug`urta to`lovlariga oid xarajatlar hisobga olinadi. Bu to`lovlar tegishli ekinlarning tannarxiga bevosita olib boriladi.

Bu moddada mahsulotni ishlab chiqarishda bevosita foydalaniladigan bino, inshoot, mashina, uskuna, inventar va boshqa asosiy vositalarning sug`urta to`lovlari ham hisobga olib boriladi. Sug`urta to`lovlari mahsulotni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarga mutanosib ravishda ekin va mahsulot turlari bo`yicha taqsimlanadi.

Sug`urta to`lovlari buxgalteriyada «Dehqonchilik» schyotining debetida, «Sug`urta bo`yicha hisoblashishlar» schyotining kreditida aks ettiriladi.

«Boshqa xarajatlar» moddasida mahsulotni ishlab chiqarishga bevosita daxldor, ammo yuqorida ko`rib chiqilgan moddalardan birortasi Ham kiritilmaydigan xarajatlar aks ettiriladi.

O`tgan yilning kuzida qilingan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobot yili xarajatlariga qo`shiladi. Ular ekin turlari bo`yicha ekin maydoniga mutanosib taqsimlanadi. Aniqlangan summaga analitik schyotlar bo`yicha «Dehqonchilik» schyotining debet va kreditida yozuvlar qilinadi.

«Dehqonchilik» schyotining debetida aytib o`tilgan yozuvlar qilingach, analitik schyotlar bo`yicha aloxida ekin turlariga yil davomida sarflangan barcha ishlab chiqarish xarajatlari aniqlanadi. Bu schyotning kreditida yil davomida sarflangan barcha ishlab chiqarish xarajatlari aniqlanadi. Bu schyotning kreditida yil davomida mahsulotning chiqarilishi rejali tannarxda aks ettiriladi va quyidagi

yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi:

Debet: 2800-«Tayyor mahsulot» schyoti.

Kredit: 2000«Asosiy ishlab chiqarish» schyoti

Yil oxirida haqiqiy tannarx aniqlangandan so`ng yozuv haqiqiy va rejadagi tannarx o`rtasida farqqa to`g`rilanadi (korrektirovka qilinadi).

Dehqonchilik mahsuloti birligining tannarxini kalkulyasiya qilish tartibi. «Dehqonchilik» schyotining analitik schyotlari ekin turlari bo`yicha aks ettirilgan xarajat ma`lumotlariga asoslanuvchi haqiqiy tannarxining hisobot kalkulyasiyalari yil oxirida asosiy fermer xo`jalik ishlarining doirasi tugab, joriy yil hosili yig`ib olingandan keyin tuziladi.

Bunda asosiy, yondosh va yordamchi mahsulot tushunchalari farqlanadi, ya`ni asosiy mahsulot mazkur ishlab chiqarish shu mahsulotni olish maqsadlarida tashkil etilgan. yondosh mahsulot-asosiy ekinlardan asosiy mahsulotlar bilan bir vaqtda olinadi va iste`mol xususiyatlariga ko`ra asosiy mahsulotga o`xshash. yordamchi mahsulot-bu ham asosiy mahsulot bilan bir vaqtda olinadi, ammo xususiyatiga ko`ra ikkinchi darajali mahsulot hisoblanadi.

Dehqonchilikda har bir alohida fermer xo`jalik ekinidan olinadigan mahsulot turi kalkulyasiya ob`ekti hisoblanadi. Bir ekindan ayni bir vaqtda har xil xususiyatdagi mahsulot olish tufayli dehqonchilik mahsuloti tannarxini kalkulyasiya qilishda turli usuldan foydalaniladi. Masalan, xarajatlarni bevosita o`tkazish metodidan bir ekindan faqat bitta mahsulot turi olinadigan hollarda foydalaniladi. Bu eng oddiysi: mazkur ekinga sarflangan xarajatlar summasiga olingan mahsulot miqdoriga bo`linadi. Ayrim fermer xo`jalik ekinlari o`rtasida olinayotgan mahsulot turlari uchun umumiy bo`lgan belgilaridan birining miqdoriy qiymatiga mutanosib taqsimlash metodi ham qo`llaniladi.

Dehqonchilik mahsulotining tannarxini hisoblashda fermer xo`jalik ekiniga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlaridan noqulay ob-havo sharoitlari tufayli olingan mahsulotga taalluqli bo`lgan va belgilangan tartibda zararga o`tkaziladigan sug`urta tovonlari summasi istisno (faqat hisobga olishda) qilinadi.

Fermer xo`jalik ekinlari (ekin turlari) bo`yicha dehqonchilik mahsulotining tannarxi:

A) don, paxta, kungaboqar urug`i-franko-dala (xirmon yoki dastlabki ishlov beriladigan joy),

B) somon, xashak-franko-saqlash joyi,

V) qand lavlagi, kartoshka, poliz ekinlari, sabzavot, qand lavlagi tugunchali, ildizmevalar-franko-dala (saqlash joyi),

G) mevalar, rezavor, uzum, tamaki, maxorka va choy bargi dorivor efir moy ekinlari va gulchilik mahsulotlari, ximoya qilingan yer sabzavotlari-franko-qabul (saqlash) joylari,

D) zig`ir-pohol, ivitilgan zigirpoya-franko-saqlash qayti ishlash (xo`jalikda) joyi,

ye) o`t, zig`ir, sabzavot va boshqa ekinlar urug`lari-franko-saqlash joyi,

J) oziqa uchun ko`k massa-franko-iste`mol joyi,

Z) Silos, o`t uni senaj, granula uchun ko`k massa, franko-silos bosish, senaj qilish (minora, zovur, o`ra) joyi, o`t uni, granula tayyorlash joyi.

Joriy yildagi dehqonchilik mahsulotining tannarxiga yig`ilgan, ammo yanchilmagan yoki yig`ilmagan ekinlar bo`yicha xarajatlar kiritilmaydi. Agarda yil oxirida dehqonchilikda yanchilmagan ekinlar bo`lsa, haqiqiy xarajatlar quyidagicha taqsimlanadi.

Yig`ishtirib yanchilgan va yig`ilgan, ammo yanchilmagan ekin bo`yicha sarflangan haqiqiy xarajatlarning umumiy summasidan mahsulotni yanchish va daladan olib kelish xarajatlari chegiriladi. Ana shundan keyin qolgan xarajatlar summasi yig`ishtirib yanchilmagan ekin o`rtasida gektarlar miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Yig`ishtirib yanchilgan ekinlar mahsulotining haqiqiy tannarxini aniqlash maqsadlarida yig`ishtirilgan ekinlarga sarflangan xarajatlar summasiga ularni yanchish, tashish bo`yicha xarajatlar qo`shiladi. Kelgusi yilda tannarxni hisoblashda yanchilmagan ekinlar va yig`ishtirish bo`yicha xarajatlar mahsulotni yanchish, tozalash va tashish xarajatlarga qo`shiladi.

Somon (chori), jo`xoripoya bargi va g`o`zapoya kungaboqar tupguli, karam bargi, shox-shabba (tut) va shu kabilarning tannarxi ushbu mahsulotni yig`ishtirish, presslash, tashish, g`aramlash va tayyorlashga oid boshqa ishlar xarajatlari asosida belgilangan me`yorlar bo`yicha ularga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Don ekinlarini ekish va yig`ishtirish xarajatlari (donni xirmonda tozalash va quritish xarajatlari qo`shilib) don, don chiqitlari va somonning tannarxini tashkil qiladi.

Don va don chiqitlarning tannarxini aniqlash uchun, avvalo unga tegishli jami xarajatlarda somonning belgilangan qiymati chegirib tashlanadi. qolgan xarajatlar don va don chiqitlarining tannarxini tashkil etadi. Donning tannarxini aniqlash uchun don chiqitlari (laboratoriyada aniqlangan donning miqdoriga karab) sof donga aylantiriladi. so`ngra ularga tegishli jami xarajatlar shartli don miqdoriga bo`linib 1s donning tannarxi aniqlanadi.

Masalan, kuzgi bug`doy hosili yig`ishtirib va tozalab olingandan keyin 50000 s don, 3000 s chiqiti va 40000 s somon olinadi. Ushbu xosilni yetishtirish va xirmonda tozalash uchun 2550000 so`m sarflangan. Somonning me`yoriy xarajatlar qiymati 50000 so`mni tashkil etadi. 1s somonning tannarxi esa -  $(50000:40000)$  1,25 so`mni tashkil etdi. U holda don va don chiqitiga tegishli xarajatlar $(2550000-50000)$ 2500000 so`mga teng.

Don chiqiti (chori)ning tarkibidan 50 foizdan bo`lganligi uni donga aylantirilganda $(3000 \times 50:100)$ 1500 s jami shartli don miqdori esa (50000×1500) 51500 s ga teng.

1 s donning tannarxi $(2500000:51500)$ 40 sum 54 tiyinni, 1 s chorining tannarxi esa $(40,54 \times 50)$ 20 sum 27 tiyinni tashkil etdi.

Urug`chilik ekinlari bo`yicha umumiy xarajatlar tegishli reproduksiyadagi (super-elita, I va II reproduksiya) urug`lik donni olishga aloqador qo`shimcha xarajatlarni Ham qo`shib, urug`lar tannarxiga yuqoridagi tartibda o`tkaziladi. 1 s urug` (super-elita, elita, 1 reppro-duksiya, qolgan repproduksiyalar)ning tannarxi

tegishli urug`ga o`tkazilgan xarajatlarning umumiy summasi tozalangan va qurtilgan urug` massasiga realizasiya bahosiga mutanosib taqsimlanadi.

1 s makkajo`xori donining tannarxini hisoblashda don qabul qi-lish punktlarida sutkalik o`rtacha namunalarni sutkadagi donning bazis namligini (makkajo`xori sutasidagi donning bazis namligi 22 foiz ko`lamida qabul qilingan) hisobga olib yanchish natijasida aniqlangan so`talardan quruq donga o`tkazish xo`jalikning davlatga sotgan makkajo`xori so`talaridan bazis namlikdagi don chiqishining o`rtacha foizidan aniqlanadi. Bu foiz qabul qilingan don nakladnoylari registrlarining ma'lumotlaridan olinadi. 1 s makkajo`xori donining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarini jo`xoripoyalarini yig`ishtirish sarflari va qiymatini istisno qilib, don massasiga taqsimlab aniqlanadi.

1 s moyli o`simliklar (kungaboqar, zig`ir, xartol, kunjut, raps va boshqalar) urug`ining tannarxi donli ekinlar uchun belgilangan tartibda aniqlanadi.

1s paxtaning tannarxi uni yotishtirish va yig`ishtirish (g`o`zapoya bundan mustasno) xarajatlari summasini uning hisobga olingan (kondisiya) miqdoriga taqsimlab aniqlanadi. Paxtaning tannarxi alohida navlar bo`yicha aniqlanganda xarajatlarning umumiy summasi uning xarid narxlarining qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

Tola beruvchi zig`ir mahsulotining tannarxini hisoblashda o`stirish va yig`ishtirishga oid ishlab chiqarish xarajatlari urug` va tola miqdoriga ularning ularning xarid baholaridagi qiymatiga mutanosib o`tkaziladi.

Ivigan zig`ir poyasining tannarxi pohl qiymati va yoyish, ag`darish va ivigan poyani ko`tarib olish xarajatlarini qamrab oladi.

Boshqa yigiriladigan ekinlar (nasha, o`rta Rossiya nashasi, janubiy nasha, kanaf, dag`al kanop, jut va boshqalar) tannarxi tola beruvchi zigir mahsuloti singari hisoblanadi.

1s lavlagi ildiz mevasining ishlab chiqarish tannarxi (fabrikada ishlatiladigan va tug`anagi) ularni qand lavlagining (foydalaniladigan bargining qiymati xarajatlardan chegirib tashlangach) fizik massasiga bo`lib aniqlanadi.

Tamaki va moxorka xom ashyosining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi va xom ashyoning hisobga olingan massasidan kelib chiqib, xarajatlarni mahsulotning aloxida turlariga ularning xarid baholaridagi qiymatiga mutanosib taqsimlab aniqlanadi. Urug`chilikda 1 s tamaki, moxorka xom ashyosi, urug`ning tannarxi muayyan mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli summasi va xom ashyo, urug`ning hisobga olingan massasidan kelib chiqib aniqlanadi.

Dalada o`stiriladigan dorivor o`simliklar ayrim turlari mahsuloti 1 s ning tannarxi mazkur mahsulot turiga o`tkazilgan umumiy xarajatlar summasini uning umumiy massasiga realizasiya bahosi bo`yicha qiymatiga mutanosib aniqlanadi.

O`tsimon bir yillik va ikki yillik (kashnich, arpabodiyon, ajgon, qora zira, oq zira va shu kabilar) hamda efir moyli ekinlar mahsulotining tannarxi barcha xarajatlarni ularning realizasiya bahosidagi qiymatiga mutanosib taqsimlab aniqlanadi. Bunda to`liq pishguncha o`stirish va yig`ishtirish xarajatlari urug`lar tannarxiga kiritiladi. Arpabodiyon va oq ziradan dumbillik vaqtida foydalanilganda barcha xarajatlar efir-moy xom ashyosi tannarxiga o`tkaziladi.

O`tsimon ko`p yillik efir-moy ekinlari bo`yicha (yalpiz, yorongul, mavrak va boshqalar) ekish xarajatlari har yili olinadigan mahsulot miqdoriga mutanosib taqsimlanadi.

1 s kartoshkaning tanarxi kartoshkani yetishtirishga taalluqli barcha xarajatlarni palak qiymatini chegirib, kartoshka xosiliga taqsimlab aniqlanadi.

Ayrim sabzavot ekinlari (1000 dona ko`chat) 1 s hosilning tannarxi ochiq sabzavotchilik va himoya qilingan yerdagi sabzavotchilik bo`yicha alohida tarzda xarajatlar summasini palak xarajatlarini qo`shib mahsulot massasiga bo`lish yo`li bilan aniqlanadi.

1 s shampinonlar tannarxini hisoblashda barcha xarajatlar ishla-tilgan substrat qiymatini chegirib (yig`ishtirish va tashishdagi me`yoriy xarajatlar normativlaridan kelib chiqib) mahsulot massasiga o`tkaziladi.

Oziq-ovkat ekini sifatida poliz ekinlari ayrim turlari 1 s hosilning tannarxi

o`stirish va xosilni yig`ishtirishga taalluqli barcha xarajatlarni mahsulot massasiga taqsimlab aniqlanadi. Bunda xarajatlar ayrim ekinlarga mahsulot realizasiyasidan tushgan daromadga mutanosib taqsimlanadi.

Sabzavot va poliz ekinlari 1 s urug`ning tannarxi o`stirish, yig`ishtirish, quritish va navlarga ajratish sarflarini taqsimlab, bunda qo`shimcha mahsulot (chiqit), massasiga o`tkazilgan xarajatlari istisno qilib aniqlanadi.

Oziqa ildizmevalar va poliz ekinlari hayvonlarga oziqa sifatida berilgan qand lavlagi, ularning tuganaklari tannarxi yuqorida sabzavot ekinlari, qand lavlagi va poliz ekinlari tannarxini hisoblashda bayon etilgan tartibda aniqlanadi.

Oziqa ekinlarini o`stirish va yig`ishtirish xarajatlari ular mahsuloti (o`tlarning ko`k massasi, xashak)ning tannarxini tashkil qiladi.

Butun turdagi mahsulotni olishda foydalaniladigan sepilgan o`t, yaxshilangan va tabiiy pichanzor hamda madaniy o`tloqlar xarajatlari to`liq tarzda mahsulot tannarxiga kiritiladi. Sepilgan o`tlar, yaxshilangan pichanzorlar, yaxshilangan va madaniy o`tloqlar hamda boshqa tabiiy yer-suvlaridan bir necha mahsulot turini olishda foydalanilganda ekinni yetishtirishga kilingan xarajatlar ekinlarga 1 ga yerdan oziqa birligiga ko`ra hisoblanadigan mahsulot hosiliga mutanosib taqsimlanadigan xarajatlar yig`indisidan tarkib topadi.

Ko`p yillik o`tlarni sepish xarajatlari (tugallanmagan ishlab chiqarishga tegishli almashlab ekishda ekinlardan foydalanish yillari miqdoriga mutanosib tarzda yillar bo`yicha taqsimlanadi va ularni o`stirish xarajatlariga tegishli xarajat moddallari bo`yicha kiritiladi.

Ko`p yillik o`t boshqa ekin orasiga ekilganda va ekilgan yili o`t hosili olinganda tugallanmagan ishlab chiqarish bo`yicha umumxarajatlar (ekin bir vaqtda amalga oshiriladigan bo`lsa, yerga ekishdan oldingi ishlov berish sarflari) har ikkala ekin o`rtasida 1 ga yerdan olingan hosilga mutanosib (senterlarda hisoblanadigan oziqa birligi) taqsimlanadi. Agarda ekilgan yil hosil ikkinchi ekindan olinmasa, aytib o`tilgan barcha xarajatlar qoplovchi ekinga o`tkaziladi.

1 s tayyor silos, senaj (chiqitini chegirib) tannarxi ko`k massani yetishtirish,

uni franko-xandaqqa tashib kelish sarflari va silos bostirish, senaj tayyorlash, xandaqlarni tozalash, silos va senaj massasini joylash hamda shibbalash, somonni yuklash va tashish, xandaqlarni plyonka va somon bilan yopish xarajatlari yig`indisidan aniqlanadi. Silos bostirishda ishlatiladigan boshqa komponentarlar (ildizmevalar, karam bargi, kartoshka palagi, kungaboqar tupguli va shu kabilar) silos, senaj ishlab chiqarishning umumiy sarflariga belgilangan tartibda hisoblanadigan qiymati bo`yicha kiritiladi.

Ko`p yillik o`simliklar va gulchilik mahsulotlarning tannarxini hisoblash. Meva beradigan yoshdagi ko`p yillik o`simliklar tannarxini hisoblashda joriy yildagi umumiy xarajatdan qalamcha, gajak, palgari, bachki, novda qiymati realizatsiyasi bahosida chegiriladi.

1 s meva, rezavor, uzum tannarxi xarajatlarining umumiy summasini mahsulot massasiga (turlar, navlar bo`yicha) taqsimlab aniqlanadi.

O`stirilayotgan ekish materialarining aloxida ekin guruhlari bo`yicha (po`choqli, urug`li, danakli va shu kabilar) tannarxini aniqlashda xarajatlarning har bir uchastka bo`yicha umumiy summasi realizatsiya uchun kovlab olingan va o`stirish uchun yerda qoldirilgan ko`chatlar soniga mutanosib taqsimlanadi. Kovlangan, shu jumladan «kovlashda» bo`lganlarni ham qo`shib, mahsulotga to`g`ri keladigan xarajatlar summasidan 1000 dona ko`chatning tannarxi aniqlanadi. yerda o`stirishga qoldirilgan ko`kartirilgan ko`chat, bir yillik, ikki yillik ko`chatlar keyingi yilga tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tarzida o`tkaziladi.

Chorvachilikda joriy yildagi barcha xarajatlar saralangan va dag`al choy bargi, kofein uchun tarkibiy material va urug` tannarxini tashkil qiladi. Saralangan choy bargi tannarxini aniqlashda xarajatlarning umumiy summasidan dag`al choy bargi, kofein uchun tarkibiy material va urug`ning xarid narxlaridagi bahosi chegiriladi. 1 s saralangan choyni tannarxi shu mahsulotga o`tkazilgan xarajatlarni saralangan choy bargi massasiga bo`lib aniqlanadi.

Ochiq va ximoyalangan yerdagi gulchilik va gul ekinlari urug`chilikdagi

xarajatlar mahsulot turlari o`rtasida ularning realizasiya bahosidagi qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

Kulmoq, dafna, go`ng va tut bargini o`stirish va yig`ishtirib urug`chilikdagi mahsulot turlari o`rtasida ularning realizasiya bahosidagi qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

Hisobot kalkulyasiyalarini tuzishda mahsulot olishga sarflangan va tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash zarur bo`ladi. Bundan tashqari tabiiy ofat yoki boshqa noqulay tabiiy sharoitlar tufayli to`liq nobud bo`lgan ekinzor maydonlariga ekinlarni o`stirishga sarflangan xarajatlar summasiga «Mol-mulk va shaxsiy sug`urta bo`yicha hisoblashish» schyoti debet va «Foyda va zarar» schyoti kredit qilinadi. Ekinlar qisman nobud bo`lganda olinmagan mahsulot summasidan sug`urta tovonlari «Mol-mulk va shaxsiy sug`urta bo`yicha hisoblashish» schyotining debetida va «Dehqonchilik» schyotining kreditida aks ettiriladi. Olingan tovon «Hisoblashish schyoti»ga o`tkaziladi. Shuni aytish kerakki, hozirgi kunda sug`urta tovonining darajasi fermer xo`jaligi ekin hosilining 60 foizini tashkil qiladi. Bu korxonalarning mu`tadil faoliyatlari uchun barqaror moliyaviy sharoitlar yaratishga yordam beradi.

1.3. Chorvachilikda xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash

Chorvachilik dehqonchilik bilan bir qatorda fermer xo`jalik ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U ixtisos-lashuvidan kat`iy nazar, odatda har bir xo`jalikda bo`ladi. Bu tarmoqqa qoramol, cho`chqachilik, qo`ychilik, parrandachilik, baliqchilik va shu kabilar taalluqlidir.

Chorvachilikdagi xarajatlarni hisobga olish ob`ekti – chorvaning alohida turlari va guruh laridir. Masalan, sutchilik yo`nalishidagi chorvachilikda xarajat ob`ektlari-asosiy poda, yosh qoramol, bo`rdoqiga boqilayotgan katta yoshli mol, go`sht yo`nalishida - asosiy poda, yosh qoramol, sakkiz oylikdan katta yosh qoramol va bo`rdoqiga boqilayotgan katta mol. Cho`chqachilikda - asosiy, 2

oylikdan 4 oylikkacha bo`lgan cho`chqa bolalari, 4 oylikdan katta cho`chqa bolalari va bo`rdoqiga boqilayotgan cho`chqalar hisobga olish ob'ekti hisoblanadi.

Chorvachilikda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotning chiqishini hisobga olish bo`linmalari, fermalar, brigadirilar va shu kabilar bo`yicha amalga oshirilishi kerak. Chorvaning turi va guruhlar bo`yicha xarajatlar quyidagi kalkulyasiya moddalar bo`yicha aks ettiriladi:

1. Ijtimoiy sug`urta ajratmalari va mehnatga haq to`lash xarajatlari.
2. Hayvonlarni himoya qilish vositalari.
3. Oziqa.
4. Ish va xizmatlar.
5. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari.
6. Ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari.
7. Sug`urta to`lovlari.
8. Boshqa xarajatlar.
9. Chorvaning nobud bo`lishdan yo`qotishlar.

Ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olishga oid buxgalteriya yozuvlari oziqani taqsimlash yuzasidan boshlang`ich xujjatlar – vedomostlar, tabellar, tug`ilgan naslni kirim qilish dalolatnomalari, hayvonlarni tortib ko`rish vedomostlari va shu kabilar asosida amalga oshiriladi.

Chorvachilikdagi xarajatlar va mahsulotning chiqishi haqidagi ma`lumotlar keyin chorvachilik bo`yicha ishlab chiqarish hisobotida hamda chorvachilik mahsulotining chiqish xarajatlarini hisobga olish daftarida ko`rsatiladi (18-AF). Ularning yakuniy ma`lumotlari 10-jurnal-orderga ko`chiriladi, hisobga olish avtomatlashtirilgan sharoitda tegishli mashinogrammlar tuziladi. Bu registrlarning hammasi o`tgan oydagi xarajatlarni yil boshidan o`suvchi yakunida qayd etadi.

Chorvachilikda xarajatlarni va mahsulotning chiqishini hisobga olishda «Asosiy ishlab chiqarish» schyotidan foydalaniladi. U shuningdek olinayotgan mahsulotning tannarxini hisoblashga ham xizmat qiladi. Schyot debetida yil davomida bevosita (to`g`ri), yil oxirida esa yuqorida qayd etilgan xarajat moddalarini

bo'yicha bilvosita (egri) xarajatlar kreditida mahsulotning yil davomida rejadagi tannarxda chiqishi qayd etiladi. Yil oxirida, dehqonchilikda bo'lganidaek, rejadagi tannarx haqiqiy tannarxga yetkaziladi. Debetidagi saldo esa tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini anglatadi.

«Chorvachilik» schyoti bo'yicha hisob yuritishda xarajatlarni hisobga olish tartibini ko'rib chiqamiz. «Sug'urta ajratmalari va mehnatga haq to'lash xarajatlari» moddasida yil davomida chorvaga bevosita xizmat ko'rsatishga band bo'lgan ishchilar: ya'ni operatorlar, sut sog'uvchilar, buzoq boqarlar, otboqarlar, cho'ponlar va shu kabilarning mehnati hamda navbatdagi mehnat ta'tillariga haq to'lash aks ettiriladi. Bu bevosita modda summasiga «Chorvachilik» schyoti debet, «Xodimlar bilan mehnatga haqi bo'yicha hisoblashishlar» va «Ijtimoiy sug'urta bo'yicha hisoblashishlar» va boshqa schyotlar kreditlanadi.

«Hayvonlarni ximoya qilish vositalari» moddasida korxona mablag'lariga olinadigan biopreparatlar, dori-darmonlar, dezinfeksiya qilish vositalari va shu kabilarni xarid qilish va saqlash sarflari, shuningdek ulardan chorvachilikda foydalanishga aloqador xarajatlar aks ettiriladi. Bu moddaga yuqoridagi vositalarni ana shu maqsadlarda budjet mablag'lari hisobiga xarid etilgan qiymati kiritilmaydi.

«Oziqa» moddasida sarflangan oziqaning qiymati chorva turi va guruhlar bo'yicha oziqani taqsimlash vedomostlari asosida keltiriladi. Bu vedomostlarda har yili chorva soni, oziqa nomi va miqdori qayd etiladi. Oy yakunida ana shu vedomostlardan hayvonlar oziqa-kunlari soni va naturada hamda oziqa birligiga aylantirilgan sarflangan oziqa miqdori, shuningdek oziqa qiymati aniqlanadi. Bu ma'lumotlar keyinchalik oziqalar sarfini hisobga olish jurnalida yil boshidan usuvchi yakunida hisobga olinadi.

Oziqa sexlari va oziqani oldindan tayyorlash bo'yicha xarajatlar avvalo «Chorvachilik» schyotining aloxida analitik schyotida aks ettiriladi, so'ngra har oyda sarflangan oziqalar miqdoriga mutanosib taqsimlanadi.

Bunday hollarda oziqalarga oid xarajatlar summasiga «Chorvachilik» schyoti debet «Urug'lar va oziqa» schyoti kredit qilinadi.

«Ish va xizmatlar» moddasida o`z yordamchi ishlab chiqarishlari tomonidan chorvachilikga ko`rsatiladigan ish va xizmatlar xarajatlari hamda chet korxona va tashkilotlar ko`rsatadigan ana shunday xizmatlar uchun to`lov xarajatlarini aks ettiriladi. yordamchi ishlab chiqarishlarni hisobga olish mazkur bobning 4-punktida yoritilgan.

«Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida bevosita ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlashga aloqador xarajatlar kiritiladi. Bu xarajatlarning tarkibi va hisobga olishni dehqonchilikdagi ana shunday xarajatlarning tarkibi va hisobga olinishi dehqonchilikdagi ana shunday xarajatlarning tarkibi va hisobga olinishi bilan bir xildir.

Hayvonlar podasining o`ziga kelsak, amortizasiya ajratmalari faqat ish hayvonlari bo`yichagina hisoblanadi. Mahsuldor hayvonlar ishlab chiqarilganda ularning qiymati realizasiyadan tushgan puldan qoplanadi. Chorvachilikda amortizasiya va asosiy vositalarni tuzatish xarajatlari hisobga olish dehqonchilikdagi kabi yuritiladi, farqi faqat «Chorvachilik» schyotining debet qilinishidadir.

Chorvachilikda ishlatiladigan asosiy vositalarni saqlash xarajatlari odatda to`g`ridan-to`g`ri tegishli chorva turi, guruh i ga o`tkaziladi. Chorvachilik binolarida hayvonlarning bir necha guruh i saqlanganda bu xarajatlar ular o`rtasida band qilingan bino maydoniga mutanosib taqsimlanadi.

«Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish» moddasi bo`yicha Hisobga olish mazkur bobning 5 bandida aks ettiriladi.

«Sug`urta to`lovlari» moddasi bo`yicha hisobga olish tartibi dehqonchilikdagi kabidir, ammo bu yerda fermer xo`jalik hayvonlari, uy parrandalari, quyonlar, mo`ynali hayvonlar, asalari oilalari, shuningdek tegishli binolar, uskunalar, mashinalar: va inventarlar sug`urta qilinadi.

Boshqa xarajatlar moddasida fermalar atrofini to`shish, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o`tkazishga daxldor bo`lgan dezinfeksiya to`siqlari, sanitariya ko`rigidan o`tkazish joylari va shu kabi ob`ektlarni tushama qiymati, sut

sog`uvchi, cho`chqaboqar, chorva va parrandalarga qarovchi boshqa xodimlarga beriluvchi jomakorning eskirishi, hayvonlar uchun yozgi molxonalar, shu kabilar xarajatlari qayd etiladi. Bu xarajatlar bevosita hayvonlarning tegishli turlariga o`tkaziladi.

«Chorva mollarining nobud bo`lishidan ko`riladigan zararlar» moddasida yosh va bo`rdoqiga boqilayotgan katta yoshdagi mol, parranda, yovvoyi xayvon, quyon shuningdek asalari oilalarining nobud bo`lishi natijasida ko`riladigan zararlar aks ettiriladi, aybdor shaxslardan undirilib olinadigan qismi bu moddaga kiritilmaydi. Tabiiy ofatdan ko`riladigan zararlar bevosita «YAkuniy moliyaviy natija» schyotining debetiga o`tkaziladi.

«Chorvachilik» schyotida aks ettirilgan buxgalteriya yozuvlaridan so`ng, analitik schyotlar bo`yicha ayrim chorva turi va guruh lari bo`yicha yil davomida ularga tegishli schyotning kreditida esa yil davomida o`suvchi yakunida yetishtirilgan va olingin chorva mahsulotining rejadagi tannarxi aks ettiriladi va quyidagi schyotlar bilan korrespondensiyalanadi: «Tayyor mahsulot» schyotining debeti – chorvachilik mahsuloti qiymatiga, «O`stirishda va bo`rdoqiga boqilayotgan hayvonlar» schyotning debeti yosh mol va bo`rdoqiga boqilayotgan xayvon, shuningdek tug`ilgan hayvonlar bolasining qiymatiga, «Asosiy ishlab chiqarish» schyotining debeti - dalaga tashib chiqilgan go`ng qiymatiga.

Yil oxirida mahsulotning haqiqiy tannarxi aniqlanadi va haqiqiy hamda rejadagi tannarxi o`rtasidagi aniqlangan farq qo`shimcha buxgalteriya yozuvi orqali to`g`rilanadi, agarda haqiqiy tannarx rejadagi tannarxdan past bo`lsa, teskari (qizil) yozuv, yoki rejadagi tannarxi haqiqiy tannarxdan past bo`lsa, oddiy qo`shimcha yozuv qilinadi.

Chorvachilik mahsuloti birligi tannarxini kalkulyasiya qilish tartibi. Bu soxada ham asosiy, yondosh va yordamchi mahsulot farqlanadi. Chorvachilikda kalkulyasiya ob`ektlari aloxida mahsulot turlari, chorva bolasi, tirik vazning ortgan (o`sgan og`irligi hisoblanadi).

Chorvachilikda xarajatlarning analitik hisobi mahsulot turlari bo`yicha

emas, balki chorva turi va guruh lari bo'yicha yuritiladi. Chorvaning bir turi yoki guruh idan ikki va undan ko'proq mahsulot turi olinganda ularning tannarxi belgilangan tartibda aniqlanadi.

Chorva va parrandalarni boqish uchun yil davomida sarf qilingan xarajatlarga yil boshidagi ularga tegishli tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qo'shib, yil oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarishni chegirib chorva mahsulotlarining tannarxi aniqlanadi. Tirik vaznining tannarxi-hisobot yili boshidagi boquvda va o'stirishdagi hayvonlar va parrandalar qiymatiga yil davomidagi ularni boqish va o'stirish xarajatlari, chetdan, asosiy podadan boquvga o'tkazilgan hamda hisobot yilida tug'ilgan xayvon bolalari qiymatlarini qo'shib, ularning tirik vazniga bo'lishi asosida aniqlanadi. Bunda nobud bo'lgan chorva va parrandalarning qo'shilgan vazni (moddiy javobgar shaxslar aybi bilan nobud bo'lganlar mustasno), hamda boquvga qo'yilmasdan so'yilgan yoki sotilgan, brakka chiqarilgan katta yoshli hayvonlar vazni hisobga olinmaydi.

Go'ng xarajatlari muayyan sharoitlarda me'yoriy xarajatlarda molxonalarni go'ngdan tozalash va uni yig'ishtirish xarajatlari go'ngxonadan go'ngni olishda ishlatiladigan mashinalarining amortizasiya ajratmalari. Go'ngni chiqarish va saqlash sarflari va tushama qiymatiga ko'ra aniqlanadi.

Suyuq go'ng namligiga ko'ra belgilangan koeffisientlar bo'yicha shartli go'ngga aylantirib hisobga olinadi. Namligi 90 foizdan ortiq bo'lgan suyuq go'ng chorvachilik fermasining oqava suvlariga kiritiladi. 1t go'ngning tannarxi xarajatlarining umumiy summasini uning fizik massasiga taqsimlab aniqlanadi.

Yung, momiq, pat (to'llagandagi), qil tuyoq, so'yilgan yovvoyi hayvonlar go'shti, terisi hamda o'lgan mol va parrandalarning (yuqumsiz kasalliklaridan) foydalanilgan go'shti foydalanish mumkin bo'lgan yoki sotish narxida baholanadi va ularning qiymati tegishli xayvon hamda parranda turlari va guruh lari xarajatini kamaytirishga yo'llantiriladi.

Tannarxni hisoblashda har bir turdagi yosh va katta yoshdagi hayvonlar guruhlari bo'yicha chorva va parrandalar tirik vaznining yil davomida ortishi, yil

oxiriga qoldirilayotgan chorva (parranda)ni u yoki bu turining tegishli guruh i sonining tirik vaznini qo`shib, hosil bo`lgan miqdoridan yil davomida bu guruh dan boqishga o`tkazilganlarning tirik vazni, shuningdek shu guruh da yil boshida bor bo`lgan chorva sonining tirik vaznini chegirib aniqlanadi. hisoblangan miqdor mazkur chorva yoki parranda guruh i bo`yicha tirik vaznining ortishini tashkil qiladi (hisobga olishda va hisobot yilida o`lgan hayvonlar bo`yicha yil boshidan boshlab o`lgan vaqtigacha o`sgan vaznini qo`shib hisoblanadi).

1s qo`shilgan tirik vaznning tannarxi tegishli texnologik guruh dagi chorva va parrandalar tirik vaznining ortishga kiritilgan xarajatlar summasini tirik vaznning ortgan sentnerlari miqdoriga (o`lgan hayvonlarning o`sgan vaznini qo`shib) bo`lib aniqlanadi. Chorva va parrandalar 1 s tirik vaznining tannarxi ularning qiymatini tirik vaznlar miqdoriga bo`lib (o`lgan hayvonlar vaznining ortishi kiritilmaydi, bunda o`lgan hayvonlar massasi yil oxirida uning haqiqiy tannarxiga hisoblanmaydi) aniqlanadi.

Sut yo`nalishidagi chorcachilikda 1 s sut va 1 bosh buzoqning tannarxi sut beradigan sigirlar va nasldor buqalarni boqish xarajatlaridan boshqa mahsulot turlari: go`ng, to`llagandagi yung va qilga o`tkazilgan xarajatlarni chegirib aniqlanadi. Sut chorcachiligida xarajatlarning umumiy summasidan go`ng va shu kabilar qiymati chegirilgandan so`ng qolgan xarajatlar oziqaning almashinuv energiyasi sarfiga ko`ra - sutga 90 foiz, buzoqqa 10 foiz taqsimlanadi.

Barcha yoshdagi sut chorcachiligining yosh hayvonlari va asosiy podadan chiqarilgan katta hayvonlari tirik vaznining o`sinh tannarxi ularni boqish tannarxidan boshqa mahsulotlar qiymatini chegirib aniqlanadi. 1s qo`shilgan vaznning tannarxi tegishli xarajatlar summasini tirik vaznning tannarxi tegishli xarajatlar sumasini tirik vaznnning ortgan sentnerlari miqdoriga (o`lgan hayvonlar tirik vaznning ortishini qo`shib) taqsimlab aniqlanadi.

Bo`yvollar va qo`toslar 1 s suti tirik vaznning ortish tannarxi sut chorcachiligining mahsuloti tannarxi singari hisoblanadi.

Go`sht chorcachiligida 1 bosh buzoqning tug`ilishdan tirik vazni va o`tgan

yilgi ajratilgan buzoqlar (sakkiz oylik) 1 s. tirik vazni haqiqiy tannarxidan kelib chiqib aniqlanadi.

Buzoqlar tirik vaznining tannarxi sakkiz oygacha bo`lgan buzoq vaznining ham qo`shib, sigir va g`unajinlar, nasldor buqalar va sakkiz oylikkacha bo`lgan buzoqlarni boqish xarajatlarini tashkil qiladi, bundan sut (realizasiya bahosida) va boshqa mahsulotlar (go`ng, jun, shox, qil, tuyuq)ga o`tkazilgan xarajatlar chegirib tashlanadi.

Buzoqlar 1 s tirik vaznining tannarxi nasl va sakkiz oygacha bo`lgan buzoqlar tirik vazniga o`tkazilgan xarajatlar summasi va yil boshida shu guruh da bo`lgan hamda yil boshidan kelib tushgan buzoqlar balans qiymatini yil oxirida bor bo`lgan va hisobdan chiqqan, bunga o`lganlarning tirik vaznini ham qo`shib (joriy yildagi o`sinh qismida), buzoqlaring umumiy tirik vazniga bo`lib aniqlanadi. Yil oxirgi qolgan buzoqlar qiymati ana shu tannarxdan kelib chiqib aniqlanadi.

Sakkiz oydan katta bo`lgan yosh mol va bo`rdoqiga boqilayotgan katta mollar tirik vaznining tannarxi, ularni saqlash va boqish xarajatlaridan yordamchi mahsulotlarga o`tkazilgan sarflar chegirib tashlangach aniqlanadi.

Cho`chqachilik mahsulotining tannarxi ona cho`chqani bolalari bilan nasldor erkak cho`chqalar, o`stirishda va bo`rdoqiga boqilayotgan cho`chqalarni boqish xarajatlarini qamrab oladi. Bu xarajatlar cho`chqachilik mahsulotining aloxida: yaroqli nasl boshi, tirik vaznning ortishi va go`ngga o`tkaziladi.

Tirik vaznining ortishi va 1 bosh naslning ajratish vaqtidagi tannarxi asosiy podani boqish sarflarining umumiy summasini (qo`shimcha mahsulot qiymatini chegirib) ajratilgan nasllar, bunga tugilgandagi tirik vaznini ham kiritib, tirik vaznining o`sgan miqdoriga taqsimlab aniqlanadi.

Ajratilgan cho`chqa bolalari 1 s tirik vaznning ortish tannarxi yil boshida onasi bilan bo`lgan cho`chqa bolalari qiymati summasi va joriy yilda ajratilgan bolalar tirik vazniga (o`lganlarini ham qo`shib) asosiy poda bo`yicha xarajatlarni bo`lib aniqlanadi.

Qolgan guruhdagi cho`chqalar (o`stirishdagi va bo`rdoqiga boqilayotgan) 1 s

tirik vaznining ortish tannarxi tegishli guruhlar bo'yicha xarajatlarni shu guruhda erishilgan o'sish miqdoriga taqsimlab aniqlanadi.

Ixtisoslashgan xo'jaliklarda cho'chqachilik mahsulotining tannarxi tarmoq bo'yicha umuman va har bir texnologik guruh bo'yicha, ixtisoslashmagan xo'jaliklarda faqat tarmoq bo'yicha aniqlanadi. Umuman tarmoq bo'yicha cho'chqalar tirik vaznining yalpi o'sishining tannarxi, naslning (o'lganlarini ham qo'shib) tug'ilishdagi tirik vaznini ham qo'shib hisobga olish ob'ektlari bo'yicha xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi. Cho'chqalar 1 s tirik vaznning tannarxi yuqorida bayon etilgan tartibda hisoblanadi.

Qo'ychilik va echkichilik mahsulotining tannarxi katta yoshli va yosh mollarni boqish, jun qirqish, shuningdek qorako'lchilikda kuzilarni so'yish hamda teriga ishlov berish xarajatlaridan iborat bo'ladi. Go'sht-jun yoki jun-go'sht qo'ychiligida ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot turlari: jun, tirik vaznning ortishi, nasl, sut, qorako'lchilik vatri qo'ychiligida, yuqorida aytilganlardan tashqari teri va qorako'l, o'stirishga qoldirilayotgan qo'zilarining tirik vazni bo'yicha taqsimlanadi.

Qo'zilarining tug'ilish vaqtidagi tannarxi asosi poda qo'zilarini boqish uchun umumiy sarflarning jun-go'sht qo'ychiligida 10 foizi, qorako'lchilikda 15 foiz miqdorida belgilanadi.

Asosiy mahsulot turlari tannarxini hisoblashda (tirik vaznning ortishi va jun) qo'ylarni boqish xarajatlarining umumiy summasidan qo'shimcha mahsulot qiymati chegiriladi. qolgan xarajatlari bu mahsulot turlariga belgilangan me'yorlardagi oziqa sarflariga (oziqa birliklarida) mutanosib taqsimlanadi.

Jun qirqish punktini saqlash, qo'y (echki)lar junini qirqish, junni navlarga ajratish, joylash, tamg'alash xarajatlari junga o'tkaziladi, qorako'l qo'zilarini so'yish, teriga dastlabki ishlov berish va ularni tashish xarajatlari qorako'l terisi tannarxiga kiritiladi.

Qo'zilarini ajratish vaqtida 1 s organ tirik vaznning tannarxi qo'zilarining (qorako'l qo'zilarini tug'ilish vaqtida, o'stirishga qoldirilgan) tannarxi, tirik

vaznning ortish xarajatlari qorako`l qo`zilar qiymati va ajratish vaqtidagi chetdan keltirilgan qo`zilar qiymati va ajratish vaqtidagi tirik vazni bilan (o`lganlarning tirik vaznini chegirmay) joriy yildagi ortish qismi bo`yicha aniqladi. yosh qo`y va bo`rdoqiga boqilayotgan katta qo`y 1 s tirik vaznining tannarxi yuqorida bayon etilgan tartibda aniqlanadi.

Echkichilikda nasl, tirik vazn, junning tannarxi xuddi qo`ychilik (qorako`lchilikdan tashqari) mahsulotlari tannarxi singari aniqlanadi.

1 ming dona tuxum 1 s. parranda tirik vaznining tannarxi parandani boqish va o`stirish xarajatlari (bundan par-pat, go`ng va boshqa mahsulotlar qiymatini chegirib) va tegishli mahsulot (tuxum, tirik vaznining ortishi) miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi.

Bir sutkalik jo`jalarning tannarxini aniqlash bo`yicha (ularning qiymatini ham qo`shib) barcha xarajatlarni ishlab chiqarish chiqitlari, palag`da tuxumlar (mumkin bo`lgan realizasiya bahosida) qiymatini chegirib yaroqli sutkalik jo`jalar miqdoriga bo`lib aniqlanadi.

Qulunning tug`ilgandagi tannarxi biyani boqishga sarflanadigan 60 kunlik oziqa qiymatiga ko`ra aniqlanadi.

Nasldor yilqichilikda toyni ajratish vaqtidagi tannarxi biya, nasldor ayg`ir va sinovdagi ayg`irni boqishning yillik xarajatlari summasidan go`ng va boshqa mahsulotlar qiymati hamda biya va ayg`irlar ishining qiymatini (shu otlarning ot-kun tannarxi me`yorlariga ko`ra) chegirib aniqlanadi.

Otlarni otxona-yaylovda boqiladigan qimizchilik fermalarida mahsulotning asosiy turi biya suti-qimiz va ajratishgacha boqiladigan kulunlardir. Biya sutining tannarxi qimizchilik fermasi biyalari va nasldor ayg`irlarni boqish xarajatlari (sog`ish va qulunlarni qo`shimcha oziqlantirish xarajatlarini ham kiritib) summasidan, bundan ajratiladigan qulunlar, biya va ayg`irlar ishi, go`ng va tullangan jun va qil qiymatini chegirib aniqlanadi. Bunda zotdor bo`lmagan kulunlar go`shtga mo`ljallangan kulunlar baholari bo`yicha zotdor ajratiladigan kulunlar tegishli zot I klass va II kategoriyasidagi bir otga belgilangan amaldagi

preyskurant bahoning 40 foizi xajmida, biya va ayg`irlar ishining qiymati, ish otlarining ot-kun normativ tannarxi bo`yicha, go`ng, belgilangan baholarda va ot qili va juni mumkin bo`lgan realizasiya baholarida baholanadi.

Nasl va qimiz olinadigan uyurlab boqiladigan yilqichilikda biya va nasldor ayg`irlarni boqish xarajatlari (qo`shimcha mahsulot qiymatini chegirib) nasl (yaroqli) va qimizga belgilangan koeffisient bo`yicha taqsimlab o`tkaziladi: qimiz 1,0 toy 6-9 qulun bir bosh – 6,0.

Qimizchilikning tannarxi biya sutiga o`tgazilgan sarflar va uni qayta ishlash sarflaridan kelib chiqib aniqlanadi. O`stirilayotgan toyning tannarxi uni boqish xarajatlaridan go`ng, mahsulot, bajarilgan ishlar qiymatini chegirib aniqlanadi.

Yosh otlarning tannarxi hisobot yilida belgilangan oziqa-kunlar miqdoriga ko`ra boqish xarajatlarini va bir oziqa-kunining o`rtacha qiymatini hamda keltirilgan yoki tug`ilgan yil boshida hisobda bo`lgan yosh ot qiymatini jamlab aniqlanadi.

Tuyachilikda 1 tuya bolasining tannarxi tuyani boqishning 120 oziqa kun qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi. Butaloqning ajratish vaqtidagi tannarxini aniqlashda yil boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlariga butaloqli tuyalar asosiy podasini boqish bo`yicha joriy yildagi xarajatlar kiritilib, hosil bo`lgan summadan katta tuyalar ishi, olingan sut, jun, go`ng va boshqa mahsulotlar qiymati hamda kelgusi yilga o`tadigan tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati chegiriladi. Farq ajratiladigan bo`taloqlar tannarxinin tashkil qiladi.

Shimol bug`uchiligida bug`ularni boqishning umumiy xarajatlari yosh guruhleri (urg`ochi va nasldor erkak bug`u, joriy yilda tug`ilgan yosh bug`ular, axta (bichilgan) qilingan bug`ular) bo`yicha oziqa-kunlar soniga mutanosib hayvonlarning tegishli guruh lariga, o`lgan, yo`qolgan, majburan so`yilgan bug`ular oziqa-kunlarini ham qo`shib taqsimlanadi. Bunda bichilgan erkak bug`ularni boqishga qilingan sarflar bug`ularning tegishli yosh guruhlariga oziqa-kunlar soniga mutanosib taqsimlanadi.

1 bosh naslning tannarxi ona bug`ular, nasldor erkak bug`ularni boqish

xarajatlari va hayvonlarning bu guruh iga to`g`ri kelgan bichilgan erkak bug`ularni boqish xarajatlari summasini, qo`shimcha mahsulotlar qiymatini chegirib, olingan nasllar soniga taqsimlab aniqlanadi. Yil davomida bugu nasllari rejadagi tannarxida kiritiladi.

Joriy yilda tug`ilgan bug`u naslining tannarxi olingan nasl tannarxi, bu guruhga chetdan keltirilgani yosh bug`u qiymati va joriy yilda tugilgan yosh bug`u tirik vaznining ortish tannarxining qo`shilishidan kelib chiqadi.

Joriy va o`tgan yilda tug`ilgan yosh bug`uning o`shish tannarxi uning boqish xarajatlari va bichilgan bug`ularning boshqa xarajatlari qismining qo`shilishidan paydo bo`lgan summadan boshqa mahsulotlar qiymatini chegirib aniqlanadi.

O`tgan yillarda tug`ilgan 1 bosh yosh bug`uning tannarxi yosh bug`uning yil boshidagi va chetdan keltirilgan yosh bug`uning qiymati, uni tirik vaznining ortish xarajatlari (o`lgan hayvonlar qiymatini chegirib) summasini yil oxiriga saqlanib kolgan yosh bug`ular soniga taqsimlab aniqlanadi.

Shox yetishtiruvchi bug`uchilikda asosiy poda bug`ularini boqish xarajatlari nasl (tug`ilganda) va shox xom ashyosiga o`tkaziladi.

Asosiy podani boqish xarajatlari (boshqa mahsulotlar qiymatini chegirib) shox xom ashyo va nasl o`rtasida olachipor kiyik va morol bolalari, ulardan olingan shoxlarga belgilangan nisbatlarda taqsimlanadi. Bunda olachipor kiyiklarda tug`ilgan bola 145 g., morolda – 445 g. ishlov berilmagan shoxga tenglashtiriladi. Birinchi nasl shoxlar tannarxida baholanadi.

Yosh bug`u qo`shilgan vaznining tannarxi boshqa mahsulotlar qiymati va birinchi bolalar ishlanmagan shoxlar qiymati chegirilgach, uni boqish xarajatlari umumiy summasidan aniqlanadi. O`stirilgan yosh bug`uning tannarxi shimol bug`uchiligidagi singari hisoblanadi.

Quyunchilikda bir bosh naslning tug`ilgandagi tannarxi ajratish vaqtidagi 1 bosh yosh quyon rejadagi tannarxining 50 foizi xajmida belgilanadi.

(Tirik qolgan) yaroqli 1 bosh naslning tannarxi katta yoshli urg`ochi va erkak Hamda ajratishgacha bo`lgan yosh quyonlarni boqish xarajatlari (bundan

go`ng va boshqa mahsulotlar qiymatini chegirib) umumiy summasini yaroqli nasllar soniga bo`lib aniqlanadi.

Yosh quyonni ajratgandan keyingi o`stirish xarajatlari - yosh quyonlarning ko`shilgan tirik vaznining tannarxini tashkil qiladi. 1 s tirik vaznining tannarxi yuqorida bayon etilgan tartibda hisoblanadi.

1 bosh naslning tug`ilishdagi tannarxi ajratish vaqtidagi yosh mo`ynali xayvon bolasinning ajratish vaqtidagi tannarxi katta yoshli mo`ynali xarajatlarni nasli bilan boqish xarajatlarini (go`ng va boshqa mahsulotlar qiymatini chegirib) ajratilgan yosh hayvonlar soniga bo`lib aniqlanadi.

Joriy yildagi yosh xayvonning tannarxi katta yoshli va joriy yildagi yosh hayvonlarni boqish xarajatlarining umumiy summasini (go`ng va boshqa mahsulotlar qiymatini chegirib) yaroqli yosh hayvonlar soniga bo`lib aniqlanadi. O`tgan yilda tug`ilgan yaroqli yosh hayvonlar tannarxi (teri uchun so`yilgan, asosiy podaga o`tkazilgan va yil oxirida qolgan) yosh xayvonning yil boshida bo`lgan qiymati va uni yil davomida o`stirish xarajatlari summasidan kelib chiquvchi joriy yilda ortgan vaznining tannarxidan iborat bo`ladi.

1 ming baliqchalar tannarxi yil davomida urg`ochi baliqli va uvildiriqli xovuzlarda bo`ladigan nasldor baliqlarni boqish xarajatlari summasini uvildiriqli xovuzlardan ko`chirilgan baliqchalar soniga bo`lib aniqlanadi. 1 s shu yilgi baliqchalar tannarxi baliqchalarning umumiy qiymati va ko`chiriladigan baliqlar (shu yilgi baliqlar)ni o`stirish xarajatlarini o`stirilgan shu yilgi baliqlar sentnerlari soniga (shu yilgi baliqlarning o`rtacha og`irligi 30 gr) bo`lib aniqlanadi.

Qishlash xovuzlaridagi shu yilgi baliqchalar qiymati kelgusi yilga o`tuvchi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari deb qaraladi. Bir yilgi baliqlar qishlash xovuzlaridan katta xovuzlarga ko`chirilgandan keyingi barcha xarajatlar tovar baliqni o`stirish xarajatlariga kiritiladi. Bu xarajatlar 1 yoshli baliqlar qiymatiga ham, ularni ovlash va realizasiya qilishgacha o`stirish xarajatlariga ham kiritiladi.

1 s tovar baliqning tannarxi tovar baliqni o`stirish xarajatlari summasi va olingan tovar baliq miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi.

To'liq sistemali bo'lmagan baliqchilik xo'jaligida tovar baliqning tannarxi baliq ko'paytirish material qiymati va tovar darajasigacha o'stirish xarajatlaridan tarkib topadi.

Changlatish. Asal olish yo'nalishidagi asalarichilik mahsulotini hisoblashda xarajatlarning umumiy summasidan o'z va boshqa xo'jaliklarda asalarilar changlatadigan ekinlarga asalari oilalari boqish xarajatlarining 20-40 (meva-rezavor ekinlar, urug' uchun ekilgan beda va yo'ngichka bo'yicha 40-60 foiz) foizi changlatiladigan ekinlar maydonining kattaligi va ularning hosildorligiga ko'ra taqsimlanadi.

Changlatish yo'nalishidagi asalarichilikda asalarilarni boqish bo'yicha barcha xarajatlari asalarichilikning asal, mum, ona asalari va boshqa mahsulotlarning realizatsiya baholaridagi qiymatlarini chegirib changlatiladigan ekinlar tannarxiga ko'chiriladi.

Asalarichilik ayrim mahsulotlari turlarining tannarxi (mum, ona asalari, asalarili xaltalar va shu kabilar) mahsulot turlari bo'yicha xarajatlari summasini ularni realizatsiya bahosidagi qiymatlariga mutanosib taqsimlanadi. Mumkataklar sonining ko'payishi tannarxi eritilgan kondision mum tannarxi bo'yicha hisoblanadi. Bunda 435x300 o'lchamli uya mumkatak 140g. 435x230 mm o'lchamlisi-110g. 431x145 o'lchamli magazin mumkatagi 70g. mumga to'g'ri keladi.

Yangi asalari oilalarining tannarxi realizatsiya baholari bo'yicha qabul qilinadi va 1 kg mumning tannarxi 10 kg asal tannarxiga tenglashtiriladi.

Tovar asal hamda uyalarda va kuzgi-qishki-bahorgi oziqa sifatida omborda qoldirilgan asal zapasi asalning yalpi chiqishi hisoblanadi.

Qurt urug'ining tannarxi summasidan nasldor pillalar qiymati va urug'ni tayyorlash xarajatlari summasidan qurt urug'ini olishga tayyorlashgan va kapalaklari chiqmagan pillalarning realizatsiya bahosidagi qiymati chegirib aniqlanadi.

Xom pilla tannarxiga urug'ni tayyorlash tannarxi yoki xarid bahosi (xarid

qilinganda) bo'yicha qiymati, urug'ni inkubasiya qilish, qurtlarni boqish va pilla olish xarajatlari kiritiladi. 1 kg xom pillaning tannarxi boshqa mahsulotlar chegirilgan xarajatlar summasini olingan pilla miqdoriga bo'lib aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarini sun'iy urug'lantirish stansiya va punktlarida spermaning tannarxi xar bir nasldor xayvon turi bo'yicha hisoblanadi.

Nasldor hayvonlarni yangi olingan aralashtirilmagan sperma tannarxiga ularni boqish xarajatlari (qo'shimcha mahsulot qiymatini chegirib), shuningdek nasldor hayvonlarning zotini immunogen teshirishga aloqador xarajatlar kiritiladi. Nasldor ko'chkorlar spermasi tannarxini hisoblashda xarajatlarning umumiy summasidan junning qiymati chegiriladi.

Nasldor hayvonlar 1 ml aralashtirilmagan spermasining tannarxi bu mahsulotga o'tkazilgan xarajatlar summasini xar bir xayvon (nasldor) turi bo'yicha spermaning haqiqiy chikishiga taqsimlab aniqlanadi.

O'zi ishlab chiqargan va xarid qilingan 1 ml aralashtirilgan spermaning tannarxi o'zida ishlab chiqarilgan spermaning tannarxi hamda xarid qilingan sperma qiymatidan tashkil topuvchi xarajatlarning umumiy summasini olingan aralashtirilgan spermaning umumiy miqdoriga (tekshirish uchun qoldirilganlarini chegirib) taqsimlab aniqlanadi.

Tayyorlab muzlatilgan spermaning umumiy qiymati yil boshiga qoldiqda bor bo'lgan muzlatilgan sperma qiymati, o'zi ishlab chiqargan va xarid qilgan sperma qiymati, spermani muzlatish va uni saqlash xarajatlardan tarkib topadi. Tayyorlangan muzlatilgan spermaning miqdori yil boshiga bor bo'lgan qoldiq sperma, o'zi ishlab chiqqan va xarid qilingan muzlatilgan spermadan, tekshirish maqsadlarida sarflangan, muzlatilgandan so'ng brak qilingan, ularni saqlash va eritish vaqtidagi yo'qotishlarni chegirib hosil qilinadi.

Muzlatilgan 1 ml spermaning tannarxi umumiy xarajatlar summasi va muzlatilgan mahsulot miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi.

Spermani realizasiya qilishga aloqador transport va boshqa xarajatlar uning to'liq tannarxiga kiritiladi.

2-BOB. Fermer xo`jaliklarida auditorlik faoliyatini tashkil qilish.

2.1. Auditorlik faoliyati to`g`risida tushuncha, auditorlik faoliyatining hukukiy asoslari.

Iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bozor elementlarini iqtisodiyotga joriy etila borishni boshqarishni va mulk shaklini tubdan o`zgartirishini taqozo qildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish mulkka bo`lgan munosabatini o`zgartirdi uning to`liqligini ta'minlashda nazoratini har bir mulkdor zimmasiga yuklaydi.

O`tgan uzoq vaqt ichida mulkni to`liqligini nazorati bevosita davlat tomonidan tuzilgan nazorat o`tkazish rejalarini tuzish, bajarilishini tashkil qilish bilan ifodalangan bo`lsa, hozirga kelib amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni samarasi ularoq har bir mulk egasi nazorat shaklidan o`z hoxishi bilan foydalanish darajasiga erishdi.

O`ta markazlashtirilgan boshqarish tizimida hisob va nazorat faqat hisobot tuzish uchun xizmat qilib keldi. Korxona moliyaviy holatini tahlil qilishda hisob va nazorat o`z ta'sir kuchiga ega bo`lmay keldi.

Hozirgi kunga kelib Respublika iqtisodiyotidagi iqtisodiy o`zgarishlar, horijiy sarmoyalar kirib kelishi, xususiylashtirishning rivojlanishi turli mulkchilik shaklidagi korxonalarning tashkil topishi buxgalteriya hisobotida va nazoratda ilg`or usullarni tanlash ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish imkoniyatlarini yaratdi. Mustaqilligimizni o`tgan davrida bu borada bir qator ishlar amalga oshirildi, shu jumladan buxgalteriya hisobi, xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi auditorlik faoliyati to`g`risida qonunlar qabul qilindi.

Bundan asosiy maqsad iqtisodiyotni barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohatlarni hisob va nazoratidagi ta'sirini oshirishdir. Bozor munosabatlari hisob va nazorat oldiga yangi iqtisodiy usullar va talablarni ya'ni investisiya, dividend, aksiyalarni keltirib chiqaradi, bular yordamida korxona faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Respublikamiz iqtisodiyotida turli mulkchilik shakllarining paydo bo`lishi, korxonalarni chet el investisiyasi bilan hamkorlikda faoliyat ko`rsatish nazorat taftish ishlarini xalqaro talablar doirasida tashkil qilinishini talab qila boshladi.

Har qaysi tashkilot va korxona xo`jalik faoliyatini tashkil qilishda tegishli asosiy va aylanma mablag`lariga ega bo`ladilar. Mablag`lar holati, ularning to`liqligi tegishli moddiy javobgar shaxslar zimmasida bo`lib, bu to`g`rida korxona buxgalteriyasiga belgilangan muddatlarda moddiy javobgar shaxslar tovar va moddiy boyliklarning xarajati to`g`risida hisobot topshiradilar. Hisobot ko`rsatkichlari yordamida mablag`larning xarakati har bir moddiy javobgar shaxs bo`yicha buxgalteriya yozuvlari orqali nazorat qilib boradilar. Nazorat holati, qanday nazorat usulidan foydalanish birinchidan mulk shakliga bog`liq bo`lsa, ikkinchidan korxona tashkil qilish imkoniyalariga bog`liqdir.

“Auditorlik faoliyati to`g`risida”gi (yangi tahridagi) qonunning qabul qilinishi (iktisodiy) nazorat ishlarini soddalashtirishga, uning ta`sir kuchini oshirishga va erkin nazorat usulini shakllantirishga qaratilgan yo`nalishdir.

Jamiyat tarakkiyotida, uning xar bir boskichida shakllangan nazorat turi shu jamiyat rivoji uchun xizmat kiladi va uning yordamida jamiyatga tegishli xom-ashyo, material resurslarning xolati urganiladi va tulikligini ta`minlash chora tadbirlari amalga oshiriladi.

Uzoq yillar davomida asosiy nazorat usuli bulib taftish utkazishdan foydalanib kelishdi. Bu usul rejali iktisodiyotni boshkaruvchi usul deb xam hisoblanar edi. Taftish ishlari oldindan tuzilgan va tasdiklangan reja asosida utkazilishi, taftishchiga turli topshirik va kursatmalar berish yuli bilan amalga oshirilishi ta`minlanar edi. Nazorat utkazishning bunday usulida korxona va tashkilotlarning xujalik faoliyati fakat bir tomonlama ya`ni reja topshiriklarini bajarilishini tekshirish bilan yakunlanar edi.

Respublikamizda utkazilayotgan iktisodiy isloxatlarning samarasi shundaki-mulkni davlat tasarrufidan chikarishga, uni uz egasiga yetkazib berishga erishildi. Mulkiy erkinlik namoyon buldi. Xar bir mulk egasi uz mulkini tulik nazorat kilish

darjasiga erishdi. Mulk egasi uz mulkini tulikligini ta'minlash maksadida uzi uchun ishonchli, betaraf nazorat usulidan foydalanishi mumkin. Bunday nazorat turi audit nazoratidir. Audit nazorati Respublikamizda yosh va yangi nazorat turi hisoblanib, uning joriy kilinshi 90-yillardan boshlandi.

Audit nazoratini joriy kilish bevosita mulkni davlat tasarrufidan chikarish davriga tugri keldi. Bu degani suz auditga kadar nazorat ishlari past saviyada olib borilgan degan ma'noni bildirmaydi, chunki taftish usuli keng kullanilgan. Taftish va audit nazorati bir-biriga uxshash bulsa xam, ular tubdan fark kiladi.

Birinchi farki audit bu mulk egasining ya'ni xujalik yurituvchi sub'ektning xoxishi bilan uning talabiga binoan tuzilgan shartnomaga asosan utkazildi.

Ikkinchidan audit nazoratida fakat xolatni tekshiribgina kolmay mulk egasiga xujalik faoliyatini yaxshilash tugrisida tegishli maslaxatlar beradi.

Uchinchidan xujalikda amalga oshirilgan operasiyalarini amaldagi konunlarga mos kelishini belgilab beradi, ish faoliyatida yul kuyilgan kamchiliklarni bartaraf kilishda yordam beradi.

Audit yordamida hisob-kitoblarni tugri yuritilishi hisob va hisobotlar sifati, moliyaviy natijalarning tugri aniklanganligi tekshiriladi. Tekshirish auditor tomonidan olib boriladi.

Audit lotincha suz bulib, u eshitadi, degan ma'noni bildiradi. Auditor tuzilgan shartnoma asosida xujalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy xolatini, hisob-kitob ishlarini tugriligini nazorat kilib, uz xulosasini beruvchi yuridik shaxs hisoblanadi.

Uzbekiston Respublikasida «Auditorlik faoliyati tugrisida» konun kabul kilinishi va bu soxa bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash ma'suliyatini yanada oshiradi. Respublikmizda keng kuloch yozgan iktisodiyotni erkinlashtirish audit nazoratini yangi kirralarini ochib berdi va 1992 yilda kabul kilingan auditorlik faoliyati tugrisidagi konunga tegishli uzgartirishlar va kushimchalar kiritilishini takozo kildi.

Uzbekiston Respublikasida 2000 yil 26 mayda «Auditorlik faoliyati

tugrisida»gi Uzbekiston Respublikasi konunga uzgartirishlar va kushimchalar kiritish xakida konun kabul kilindi.

Yangi taxrirdagi «Auditorlik faoliyati tugrisida»gi konun auditorlik firmalarining xukuklarini, majburiyatlarini, javobgarligini yanada oshiradi. Konunning 2-moddasida: «Auditorlik faoliyati deganda- auditorlik tekshiruvini utkazish va boshka shu bilan boglik professional xizmatlar kursatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Davlat xokimiyati va boshkaruv organlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish takiklanadi» deb belgilangandir.

Korxona va tashkilotlar, xujalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy faoliyatini boshkarish. Tashkil kilish asosi bulib ularning ustavi hisoblanadi. Ustavga asosan auditorlik tashkilotlari uz xujalik faoliyatini yuritadilar va amaldagi konunlarga, farmon va nizomlarga mos xolda faoliyat kursatadilar.

Xujalik yurituvchi sub'ektlarning ish faoliyati auditor nazoratidan utkazilayotganda asosiy e'tibor amaldagi konunlarga va farmonlarga rioya kilish xolatini aniklab olishga karatilishi kerak. Audit nazorati yordamida xujalikda amalga oshirilgan xujalik operasiyalarining konuniyligi xujlik faoliyati bilan boglikligi aniklanadi. Audit fanining ob'ekti sifatida xujalik yurituvchi sub'ektlar, mulk egalari tushuniladi. Audit nazoratini tashkil kilish, utkazish bo'yicha mulk egasi audit firmasi bilan shartnoma tuzish xukukiga egadir. Audit nazorati yordamida moliyaviy hisobotni tugriligini, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini konuniyligini, mablaglarning tugriligini nazorat kilish imkoniyati yaratildi. Audit yordamida mulk egasining iktisodiy axvoli bilan boglik ma'lumotlar yoritilib, unga auditor xolis baxo beradi, yul kuyilgan kamchilik va nuksonlarni aniklab bartaraf kilish bo'yicha uz maslaxatlarini beradi. Audit utkazish davomida aniklangan kamchilik auditor xulosasida uz ifodasini topadi. Demak, auditning asosiy mazmuni ma'lumotlarni yigish va belgilangan ulchov birliklarida baxolashdir.

Audit utkazilishi, iktisodiy ma'lumotlarni umumlashtirilishi bo'yicha ixtiyoriy va majburiy auditga bulinadi.

Ixtiyoriy audit bevosita mulk egasining talabiga binoan utkazilishi, unda audit maksadi, mazmuni, yunalishi bevosita manfaatdor tomonidan belgilanadi. Ixtiyoriy audit xujalik faoliyatining ma'lum bir yunalishi bo'yicha yoki tulik utkazilishi mumkin.

Uzbekiston Respublikasida kabul kilingan «Auditorlik faoliyati tugrisida»gi konunning 10-moddasida: «kuyidagilar xar bir yili majburiy auditorlik tekshiruvidan utishi kerak:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshka kredit tashkilotlari;
- sugurta tashkilotlari;
- investisiya fondlari xamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablaglarini jamlab turuvchi boshka fondlar xamda ularning boshkaruv kompaniyalari...».

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmasi bulib xujalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi. Auditorlik firmasini tanlash bevosita xujalik yurituvchi sub'ekt tomonidan amalga oshiriladi.

Mulk egasi uz mulkini xolatini, xujalik faoliyatini tugriligini doimo nazorat kilish maksadida ixtiyoriy, majburiy auditorlik nazoratidan foydalanish mumkin.

Respublikamiz iktisodiyotida shakllangan mulkchilikni xilma-xilligi, bozor iktisodiyoti munosabatlarini shakllantirish auditorlik nazorati xolatini takomillashtirish, uni ta'sirchanligini oshirish, tarbiyaviy faoliyatini yaxshilashga aloxida ahamiyat bermokda.

Auditorlik nazoratni zaruriyati shundaki- birinchidan mulkni nodavlatlashtirish, ikkinchidan iktisodiyotni rivojlantirishda chet el investisiyalarini jalb kilinishidir.

Auditorlik nazorati yordamida mulkka bulgan munosabatni uzgarishi, hisobotlar xolati, amalga oshirilgan sarf-xarajatlarning maxsulot tannarxiga tugri utkazilganligi aniklanadi.

Auditorlik nazoratini utkazishdan asosiy maksad- xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tugri va xolis baxolashdir, shu bilan birga xujalik yurituvchi

sub'ektlar faoliyatida yul kuyilgan kamchilklarni bartaraf kilishda ularga yul-yuriklarni kursatishdir.

Uzbekiston Respublikasida yangi taxrirdagi «Auditorlik faoliyati tugrisida» gi konunni kabul kilinishi auditorlik nazoratiga keng e'tibor berilganligini nazortni davr talabiga moslashtirish uchun kilingan tadbirlardan biridir. konunning 5-moddasida: «Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirish lisenziyasiga ega bulgan shaxsdir. Auditorlik tashkilotlari uz faoliyatini amalga oshirishda mustakildir» deb belgilab kuyilgan.

Demak, auditorlik nazoratini olib borishda mustakil auditorlik tashkilotlari xizmatidan foydalaniladi.

Xar bir iktisodiy farmasiyaning rivojida mulkchilik munosabatlari aloxida urin egallaydi. Mulk shaklini uzgartirish, mulkka bulgan munosabatlarda uz ifodasini topadi. Bozor iktisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlar uz-uzini mablagi bilan ta'minlab, faoliyat kursatishlariga aloxida e'tibor bermokda.

Audit fanining predmeti deb, turli mulkchilikka asoslangan korxonalar faoliyatini urganishga, xujalik jarayonlarini tugriligini aniklashga shartnoma munosabatlarini bajarilishini urganishga aytiladi. Audit yordamida xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tugri baxolash amalga oshirilgan xujalik operasiyalarini tugriligini nazorat kilish imkoniyati yaratildi.. Bu imkoniyat xar ikki tomonlar urtasida tuzilgan shartnoma asosida tashkil kilinadi.

Audit yordamida xujalik yurituvchi sub'ekt faoliyatiga xolis baxo beriladi, ichki imkoniyatlardan foydalanish, xarajatlarni kamaytirish, maxsulot tannarxini arzonlashtirish, rakobatbardosh maxsulotlarni ishlab chikarish uchun maslaxatlar beriladi. Audit fani bir kator iktisodiy fanlari bilan shu jumladan «Buxgalteriya hisobi» , «Xujalik faoliyati taxlili», «Taftish va nazorat» fanlari bilan uzaro boglikdir.

Audit utkazishda tovar moddiy boyliklarni inventarizasiya kilish xujjatlarini mukobil tekshirish, baxolash usullaridan keng foydalaniladi.

Utkazilgan audit natijalari auditorlik xulosalarida uz ifodasini topadi. Audit

nazorati yordamida mulk egasiga yordam berish, nazoratni ta'sir kuchini oshirish choralari ishlab chikiladi. «Biz davlatning nazoratchilik va boshkaruvchilik funksiyalarini kiskartirish, uning korxonalar xujalik faoliyatiga, birinchi galda xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklashni iktisodiyotni erkinlashtirish yulidagi asosiy vazifalardan biri deb bilamiz» deb prezidentimiz kursatib berdi.

Respublikamizda urta va kichik biznesni rivojlantirishda, tadbirkorlikni oshirishda auditorlik nazortini rivojlanishi aloxida ahamiyatga egadir.

Uzbekiston Respublikasining mustakil deb e'lon kilinishi, uning iktisodiy-ijtimoiy yunalishida tub uzgarishlar olib keldi. Dunyo davlatlari tajribasini urganib, uning ijobiy tomonlarini rivojlantirgan xolda yangi asr busagasida bozor iktisodiyoti sari dadil kadam tashladi.

Bozor munosabatlariga utishning asosiy 5 tamoyili ishlab chikildi va xayotga tadbik etilmokda. Prezidentimiz tomonidan ishlab chikilgan 5 tamoyil Respublikamiz iktisodiyotida aloxida urin egallaganligini xayotni uzi tasdiklamokda. Tamoyillarni xayotga tadbik kilinishi natijasida Respublikada sanoat, kishlok xujaligi, iktisodiyotni boshka soxalari MDX davlatlariga nisbatan salmokli rivojlanmokda.

Prezidentimiz I. A. Karimov uzining «Uzbekiston iktisodiy isloxatlarni chukurlashtirish yulida» asarida kursatib berganidek: bozor munosabatlariga kiyinchiliklarsiz va ijtimoiy ziddiyatlarsiz sillikina utib bulmasligini boshka mamlakatlarning tajribasi kursatib turibdi. Shu sababli bozor mexanizmini joriy etishdan avval odamlarni ijtimoiy ximoyalash bo'yicha kuchli extiyoj chora - tadbirlarini oldindan kurib kuyilishi ob'ektiv zaruratdir. Shunday ekan olga surilgan nochor guruxlarning ijtimoiy ximoyalashga aloxida ahamiyat berilmokda, bir kator tadbirlar amalga oshirilmokda.

Tadbirlarni tulik bajarilishini ta'kidlaganda, axolini turmush tarzini baxolashda nazoratni tugri tashkil kilish, uni ta'sirchanligini oshirish, tarbiyaviy saloxiyatni baxolash aloxida ahamiyatlidir. Yillar davomida nazoratni turli usul va shakllaridan foydalanish nazorat turidan kat'iy nazar uning bosh maksadini

xaspushlab keldi, nazoratni siyosiy kuchga aylantirish amalga oshirildi. Respublikamizda amalga oshirilgan xususiylashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chikarish ya'ni mulkka bulgan munosabatni uzgartirish, korxonalarining xujalik faoliyatini tijorat asosida auditorlik faoliyatidan utkazish, korxonalar axborotlaridan mustakil foydalanishni tashkil kilishda auditorlik tekshiruvini talab kiladi.

Auditorlik tekshiruv Respublikamizda amal kilingan nazorat turining tashkil topgan va xozirda rivojlanayotgan nazorat shakliga aylandi. Bozor iktisodiyotiga utgan davlatlar tajribasi shuni kursatadiki, ishonchli ma'lumotni berishdan davlat va tijorat tizimida xoli bulgan tomondagina olish mumkin. Nazoratni Respublikamizdagi yosh turi hisoblangan auditning xususiyati uning mustakilligidadir.

Xozirgi kunda mavjud bulgan nazorat turlarini yaxshilash xujalik faoliyatini moliyaviy xolatini tekshirishdagi kamchiliklarni bartaraf kilish, tekshirishlardagi parallelliklarni yuk kilish xamda tadbirkorlikning xukuklarini ximoya kilish maksadida Respublika Prezidentining 1998 yil 19 noyabrdagi «Xujalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tashkil kilishni tartibga solish tugrisida» gi farmonida «auditorlik tekshirishlarni utkazish bo'yicha sarf xarajatlar ana shu tekshirishlarni tayinlangan tashkilotlar tomonidan koplanadi» deb belgilab kuyilgan. Farmonni kabul kilinishi Respublikamizda taftish, nazorat va auditni yanada ixchamlashtirish, uning ta'sirchanligini oshirishga xizmat kiladi.

Uzbekiston Respublikasining xalkaro miqyosdagi obro-u'e'tibori dunyo davlatlari tomonidan tan olinmokda va uning iktisodiy saloxiyatidagi ijobiy uzgarishlar boshka davlatlar tomonidan urganilmokda, taxlil kilinmokda

Respublika iktisodiyotini rivojlantirishda prezidentimiz tomonidan ishlab chikilgan iktisodiy isloxatlar davr talabi, rivojlanish uchun kuygan poydevor vazifasini bajarmokda. Mamlakatimizda iktisodiy isloxatlarni boskichma-boskich amalga oshirish uz samarasini bermokda.

Erishilgan yutuklarni mustaxkamlash, yul kuyilgan kamchiliklarni taxlil

kilishda nazorat turlarini tugri tashkil kilish davr talabiga aylanmokda.

Iktisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlikni keng rivojlantirish, nazorat ishlarini ta'sirchanligini oshirish uni boshkarish jarayonidagi faoliyatni takomillashtirish maksadida yukorida «Auditorlik faoliyati tugrisida»gi konunda kushimcha va uzgartirishlar kiritish zarurati tugildi. Bu masalani kurib chikkan Oliy Majlis konunni yangi taxriri tasdikladi. «Auditorlik faoliyati tugrisida» (yangi taxrirda) konun kabul kilishdi.

Konunga asosan audit mustakil ravishda mulk egasining moliyaviy xolatini, hisobotini taxlil kilish, ekspertiza utkazish yuli bilan amalga oshiriladi. Xujalik operasialarini amaldagi konun va yuriknomalarga mos kelishini aniklash maksadida utkaziladigan nazorat turidir.

«Auditorlik faoliyati tugrisida»gi konunda buxgalteriya hisobi, hisobotlarni tasdiklovchi balans, foyda va zarar tugrisidagi hisobotlar bilan birgalikda ulardagi ma'lumotlarni ishonchligini ta'minlashda ishlatilishiga aloxida e'tibor berilgan.

Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1993 yil 3 maydagi 198 sonli «Korxonalarda moliyaviy nazorat va uni xujaliklar hisobga joriy kilishda auditorlik moliya nazoratining shakllari» karorida auditorlik faoliyatini shartnoma asosida tashkil kilish kursatilgan.

1993 yil 17.06. 293-sonli «Auditorlarni va auditorlik firmalarining davlat ruyxatiga olish tugrisida» Nizomni Uzbekiston Vazirlar Maxkamasi karor kabul kildi. karori asosan auditorlar va auditorlik firmalarini davlat ruyxatiga olish uchun ular kuyidagi xujjatlarini takdim etadilar:

- auditor va auditorlik firmasini davlat ruyxatiga olish uchun ariza:

- auditorlik firmalari tomonidan ta'sischilarning ularni tashkil etish tugrisidagi shartnomalarning notarius tasdiklagan nusxasi.

- yangi tashkil etiladigan auditorlik firmalari uchun ularda bino va zarur uskanalar mavjudligini tasdiklovchi xujjatlar va boshka xujjatlar.

- auditorlarning va auditorlik firmalarini ruyxatga olish bilan boglik barcha xujjatlar ilova kilingan xolda ariza berilgan kundan boshlab 30 kun ichida amalga

oshiriladi.

-Respublikada tekshirishlarni tartibga solish, tekshirishlarni sekin kamaytirish, ularda mavjud bulgan parallellik va takrorlanishlarni bartaraf etish, tadbirkorlikni xukukiy asoslarini ximoya kilish manfaatlarini Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998 yil 19 noyabrdagi «Xujalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tashkil kilishni tartibga solish tugrisida»gi farmonda mulkchilik shaklidan kat'i nazar xujalik yurituvchi, xamda tadbirkorlik tuzilmalarini moliya xujalik faoliyatini taftish kilish bir yilda bir marta amalga oshirilishi va 30 kalendar kunidan oshmasligi, auditorlik tekshirishlarni utkazish bo'yicha sarf xarajatlar ana shu tekshirishni ta'minlangan tashkilotlar hisobida konlanishi farmonda belgilangandir.

Uzbekiston Respublikasida kabul kilingan «Auditorlik faoliyati tugrisida»gi konunni (yangi taxrirdagi) audit va auditorni maksadi, vazifalari belgilab berilgan. konunni 2 moddasida: «Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarning auditorlik tekshiruvlarini utkazish va boshka shu bilan boglik professional xizmatlar kursatish borasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish ta'kiklanadi» deb belgilangandir.

Audit nazoratni korxonada moliyaviy resurslardan samarali foydalanish tulikligini ta'minlash, ichki imkoniyatlarini ishga solish, solik tulovlarini uz vaktida tugri tulanangligini aniklash va taxlil kilish, moliyaviy natijalarni aniklashda, xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi.

Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining axamiyatini oshirish tugrisida»gi 2000 yil 22 sentyabr 395-sonli karorida «buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mikrofirmalarning moliya-xujalik faoliyati solik organlari va boshka nazorat organlari tomonidan tegishli auditorlik tashkiloti albatta jalb kilingan xolda tekshiriladi.Bunda moliyaviy hisobotning tugriligi uchun auditorlik tashkiloti javob beradi» deb belgilangan.

Karorda auditorlik xulosalarini solik organlari va boshka nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibi, majburiy undirish tartibi, auditorlik tashkilotlariga lisenziya berish tartibi belgilangandir.

2.2. Tovar moddiy zaxiralarning xarakati va ulardan foydalanish hisobi auditi.

Audit jarayonida moddiy zaxiralar kiymatini hisobga olish ma'lumotlarining xaqikiyligi tekshiriladi. Ular 1000-“Materiallar” schyotida va subschyotlarida hisobga olinadi, Ularning tarkibi uz vaktida transport tashkilotlari tomonidan da'vo kuzgatilmagan yukolish bor-yukligi tekpshtirilishi zarur. Kursatib utilgan schyotda yetishmagan yuklar bulgai yoki yuldagi ma'lum muddatdan sung korxonaga kelib tushgan bulsa xam, ular

Uz vaktida hisobga olinmaganli sababli yuk xat kilinmagan maxsulot sifatida hisobga olish xollari uchrab turadi. Ya'ni yuborilgan va yuk xat kilinmagan tovarlar yuldagi materiallar bo'yicha xam analitik va sintetik hisobi ma'lumotlari tekshirilishi zarur. Yuldagi materiallarning xaqikiy kiymatini aniklash uchun ularning 6-jurnal dalolatnomalari ma'lumotlari va birlamchi xujjatlar bilan takkoslanadi. Bundan tashkari, xaq tulanagan tovar moddiy zaxiralarning korxonaga uz vaktida kelib tushishi ustidan ichki nazoratning axvoli tekshiriladi

Korxona extiyojlari uchun materiallarning ombordan berilishigaoid operasialarni, materiallarning chetda sotilishini tekshirish muxim masala hisoblanadi.

Sarf xarajat operasialarini tekshirish ishlari materiallarning ombordan ishlab chikarishga, xyjalik extiyojlariga, ichki aylanishga sotish uchun uz tizimidagi tashkilotlarga va boshka tashkilotlarga berilishning asosiy yynalishlarini aniklaydi.

Ishlab chikarishda foydalanish va tuzatish extiyojlari uchun materiallar sarflash me'yorlari asosida belgilangan limitlarga muvofik berilishi tekshiriladi.

Materiallarni limitlar asosida berishda M-8 yoki M-9 shakllardagi limit belgilash kartalari bilan rasmiylashtirilganligi aniklanadi. Limitlar asosida belgilash kartasgashagi materiallarni berishga oid barcha yozuvlarni ombor mudiri yuritadi. Oy oxirida bir nusxasi buxgalteriyaga topshirishadi va buxgalteriya ta'minot bulimida tuzilgan limit belgilash kartalari reestri bo'yicha nazorat kilishi tekshiriladi.

Materiallarni berishda limit belgilash kartlaridan tashkari M-10 yoki M-11 shakllar va M- 12 yoki M-13 yuk xat shakllarining talablari kullanilishini tektishiradi:

Moddiy zaxiralarni talabnoma bo'yicha berish tartibi tekshirilishi kup marta iste'mol kilinadigan zaxiralar talabnomalari bilan rasmiylashtirilayotganligini, talabnomalar bo'yicha moddiy. boshshklar berilishini kim tomonidan berilishini aniklash lozim.

Sarf-xarajat operasiyalarini tekshirish jarayonida aloxida omborlar, materiallar turlari bo'yicha tanlab materiallarni berish tugrisidagi markaziy ombor ma'lumotlarini bulinmalar moddiy javobgar shaxslarining mazkur materiallar olinganligi xaqidagi hisobot ma'lumotlari bilan solishtiriladi, Bu kursatkichlar uzaro teng bulishi kerak, chunki ular bir xil xujjatlarga asoslanadi. Korxonaning uzi xar oyda ularni mana shunday takkoslab turishi zarur.

Moddiy zaxiralarni berish va olingan moddiy zaxiralar tulik kirim kishshganligi tugri ekanligy aniklanishi, ularni hisobga olish yulga kuyilganligi xamda olingan zaxiralarning xaqikiy tannarxi tugri hisoblab chikilganligini tekshirish zarur.

Chetga material berish korxona raxbari tomonidan imzolangan M-15 yuk xat shakli. va oluvchi tomonidan takdim etilgan ishonchnoma asosida amalga oshirilishi tekshiriladi.

Ombor xududidan materiallarni olib chikib ketish uchun oluvchiga ruxsatnoma yozilgan bulishi shart. Auditor moddiy boylarini uzga tashkilotlarga oerishini tekshirishida kimning ruxsati asosida berilganligini, kanday shartlarda

sotilganligini, korxona bunday moddiy zarar kurgan kurmaganligini tekshirishi kerak. Bunday tekshirish yuk xat ma'lumotlari va zaxiralar berilishi xaqidagi ishonchnomalar, olib chikib ketish ruxsatnomalari, tulov xujjatlari, 9200-“Boshka aktivlar sotish” schyotiga sintetik va analitik hisob ma'lumotlari va 4-SN-son “Moddiy texnik taminoti va sotish bo'yicha korxona maxsulotini sotish tugrisidagi hisobot” yillik hisobot shakllardagi “Boshka sotish” ma'lumotlari bo'yicha amalga oshirilishini tekshiradi.

Korxonada materiallardan ishlab chikarganda foydalanishni hisobga olish va nazorat kilish kanday tashkil etilganligini aniklashi zarur.

Korxona auditini amalga oshirishda kuyidagilarni aniklash.

- material sarfi me'yorlari rejali kalkulyasiya bilan muvofiklashtirilganligi me'yordagi materiallar ular kanday sarflanganligidan ka'tiy nazar hisobdan chikarilishi;

- amaldagi meyorlar materiallarni tejab sarflashni ragbatlantiriladimi, ular eskirgan yoki oshirilgan emasmi.

- ishlarning bir xil turlarga xar xil korxonalarda turli me'yorlarni kullash xollari yukligi;

- xom ashyo va materiallarni sarflash me'yori moddiy-texnika ta'minoti rejasi bilan kanday muvofiklash tirilganligi;

- rejali meyorlarni va moddiy texnika ta'minoti rejalarini ishlab chikarishda erishilgan tejamkorlik hisobiga olinganligi aniklanishi zarur.

Moddiy zaxiralarni sarflashning belgilangan meyorlari xaqikiy sarfga muvofikligini, ularni nazorat tartibida ishlab chikarishga sarflash yuli bilan tekshirish mumkin.

Materiallardan nazorat tartibida ishlab chikarishda foydalanish dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Dalolatnomada kuyidagilar kursatiladi:

- sarflangan materiallar mikdori;
- materiatsar sarflangan ish turlari;

- ishni bajaruvchi xodimning ismi-sharifi va malakasi. Nazorat tartibida ishlab chikarishda foydatganilgan materiallarni kullanilayotgan me'yorlar va tekshirilayotgan davrdagi xaqikiy materiallar sarfi bipan takkoshlash me'yorlarining asosiligi va realligini aniklash imkonini beradi. Kupchilik xollarda oshirilgan me'yorlar kullanilishi natijasida hisobga olinmagan moddiy resurslar xosil buladi.

Auditor moddiy resurslar sarfi xaqidagi ma'lumotlar xaqikiy sarfga muvofikligi hisobotda aks ettirilishini tekshirish kerak. Agar hisobot ma'lumotlari buicha moddiy zaxiralar ortikcha sarflanganligi aniklansa, auditor eng avvalo uni keltirib chikargan omillarni aniklanishi kerak. Bunda materiallarni kaysi turlari bo'yicha ortikcha sarflanishiga yul kuyilganligi, materiallar sarfi rejasi amaldagi me'yorga muvofikligi yoki muvofiksiz ekanligini aniklash, shuningdek korxonada amal kiluvchi me'yorlar kim tomonidan, kachon va ishlab chikarishning kaysi texnik darajasi uchun tasdiklanganligi tekshirilishi zarur.

Ish jarayonida korxonada arzon baxoli v a tez eskiruvchi buyumlardan kup mikdorda foydalaniladi. Ishlab chikarish jarayonida kup martalab katnashadigan, kiymatiga kura asosiy vositalar, limitidan past bulgan, ya'ni ular bilan asosiy vositalar urtasidagi tafovut asosan ular kiymatining mikdoridan iborat bulgan mexnat vositalari shular jumlasidandir. Analitik hisobda arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar kuyidagicha guruxlarga bulinadi:

- asbob va moslamalar;
- xyjalik anjomlari, maxsus kiym bosh va boshkalar, •maxsus poyafzal, yumshok buyumlar va boshkalar.

Arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar xarakati bo'yicha operasiyalar 1080-sintetik faol schyotda aks ettiriladi.

Arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar kup ishlatilishi sababli, ular asta-sekin eskiradi, Ularning eskirishi 2 marta hisoblanadi:

- 50 foizi arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar foydalanishga berylayotgan paytda, bu tarkatish kaydnomasi, yuk xat yoki talabnoma bilan rasmiylashtiriladi;

• 50 foizi - bugomlar tuzib ketganligi yoki tupik eskirishi natijasida ularni yuk kilish paytida, bu M-32 va M-33 shakl bo'yicha hisobdan chikarish dalolatnomalari bilan rasmiylashtiriladi Mazkur buyumlarni yuk kilishdan olingan materiallar kirim kilinadi. Buxgalteriya hisobnda kuyidagi tartibda aks ettiriladi.

• Dt 1080 Kt 1081

Arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar foydalanishga berilayotganda ularning 100% baxosi:

• -DT-2010, 2310 Kt-014

Foydalanish uchun berilgan arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar baxosining 50%ga teng bulgan eskirish:

• -DT-2010, 2310 Kt-014

yoki M-33 shakldagi dalolatnomalarga muvofik arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar kiymatining koldigi 50% hisobdan chikariladi,

• -Dt-014 Kt-1080

• -Dt-10 10 Kt-1080

Bu variant meyorlar bo'yicha xar oylik hisobga ytkazishga karaganda eskiripshi hisobga olishni ancha sarflashtiradi, birok yaroksiz xolga kelgan arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar uz vaktida hisobdan chikarilishini nazorat kiladi.

Arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlarning analitik hisobi nomenklatura bo'yicha va xar bir moddiy javobgar shaxs bo'yicha aloxida yuritilishini tekshiradi.

Tekshirish paytida asosiy vositalar arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar tarkibida, extiyot kismalar asosiy vositalar tarkibida hisobga olingan xollar aniklanadi. Bu buxgalteriya hisobotlarining xaqikiyligini buzadi.

Audit chogida arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlarning omborda, foydalanish paytida saklanish jarayonlari, bunday buyumlar saklanish va kullanish joylarida hisobga olinishini

tashkil etish, ushbu buyumlarning xarakati bo'yicha operasialarni rasmiylashtirish va hisobga olshpning tugriligini tekshirish kerak.

Foydalanishdagi arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar mavjudligi va saklanishini tekshirish tanlab yoki buyumlar saklanadigan joyda, xodimlar kulidagi buyumlarning tulik ruyxat kilish orkali amalga oshiriladi.

Buning uchun axborot manbai sifati asbob-uskuna berilishini hisobga oluvchi shaxsip kartochkalardan foydalaniladk.

Arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar saklanishini ga'minlovchi shartlariga rioya kilinishini tekshirish kuyidagi tartibda utkaziladi:

- joylarning yetarliligi, yul kuiladigan namlik foizi va boshkalar;
- saklanishi uchun javob beruvchi shaxslar doirasining yetarli ekanligi va ular bilan moddiy javobgarli tuzrisida shar tnoma tuzilg anligi;
- tushgan arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar tulik omborda kirim kilinganligi;
- mavjud buyumlar bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha hisobda bulganlari urtasida aniklangan fark kanday bartaraf etilishini tekshiradi

Korxona maxsus kiyim - bosh va maxsus poyafzalni uz xodimlariga sotishi xam mumkin.

Auditor bu buyumlar chakana narxlar bo'yicha sotilganligini ularning xam ut vaktida tulanligi, xaqi tulanmay berilganligini aniklaydi arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlarni tashkil kilishda bu buyumlarni tuzatishni tashkil etish, ularni saklash xarajatlarini hisobga olish xam tekshiriladi.

Sungra eskirish summasini hisoblab chikishning tugriligini va uz vaktidaligi xamda ularning foydalanishga berilgan va hisobdan chikarib yuborilgan arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar bo'yicha xarajatlarning tegishli schyotlariga kirimi tekshiriladi: Arzon baxoli va tez eskiruvchi buyumlar bo'yicha audit ularni hisobdan chikarish operasiyalarini tekshirish bilan yakunlanadi. Bunda hisobdan chikarish dalolatnomalari tugri rasmiylashtirilganligi; hisobdan chikarilgan buyumlardan foydalanish muddatlari kursatilganligi; ular kiymati; aybdor shaxslar tomonidan tulanishi kerak bulgan summa, temir tersak, yogoch xolida olingan va kirim kilingan zaxiralar soni; komissiya tarkibi va ushbu hisobdan chikarish

xaqidagi dalolatnoma tasdiklangan shaxslarning munosabat belgisi bor - yukligini; arzon baxoli va tez zskiruvchi buyumlar hisobdan chikarishdan olingan natijalar tugri aniklanganligi tekshirilishi kerak,

2.3. Fermer xo`jaliklarida moliyaviy natijalarini tahlil qilish va uni takomillshtirish yo`nalishlari

Foyda (daromad) iqtisodiy harakatning zaruriy sharti maqsadi sifatida qaraladi. Jahon amaliyotida foyda deyilganda ko`pincha biznes samaradorligining tadbir vositasi sifatida qaraladi. Foyda bu daromadlar va xarajatlar farqlanishidagi yuqori o`zgaruvchanlikdir. Ular orasidagi quyi o`zgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani o`lchashga daxldor bo`lgan elementlar hisoblanadi.

Daromadlar - bu hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning oqimi yoki ko`payishi shaklida o`sishi yoki passivlarning qatnashchilarning kapitaldagi omonatlaridan farq etuvchi o`sishiga olib keluvchi kamayishidir.

Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o`rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

Aksionerlik jamiyatlarida moliyaviy natijalarning, daromad va xarajatlarnig tahlili muhim ahamiyatga ega. Chunki aksionerlik jamiyatlari faoliyatidagi mablag`lar aksionerlarning aksiyalar sotib olishi natijasida shakllangan. Undan tashqari aksionerlar jamiyat faoliyatiga kiritgan mablag`lari hisobiga kelgusida daromad, dividend olishni ko`zlashadi, hamda o`z investisiyasining daromadliligini o`rganishda jamiyatning moliyaviy natijalarini doimo tahlil qilib turishadi.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning o`zaro farqlanishidagi holatga baho beriladi. Moliyaviy natijalar foyda va zararlarning shakllanish qatorlari bo`yicha o`zgarishlari o`rganiladi. Foyda va zararlarning

omilli tahlili olib boriladi.

Jamiyatda moliyaviy natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yo'lga qo'yishning chora va tadbirlari belgilanadi, hamda jamiyatning foydalilik darajasini xarakterlovchi rentabellik ko'rsatkichi va uning omilli tahlili o'tkaziladi.

Tahlil moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qish, vertikal tahlil, gorizontal tahlil, trendli tahlil va ko'rsatkichlarni aniqlash usullarida olib boriladi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qishda uning satrlar bo'yicha ko'rsatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni xarakterlovchi umumiy qatorlarning qiymat ifodasi, hisobot davri va o'tgan yilning shu davri bo'yicha ma'lumotlarga umumiy izox beriladi.

Vertikal tahlilda moliyaviy natijalarning shakllanishini bir qatorli va ko'p qatorli usullarida o'zaro farqlanishlarga va nisbiy o'zgarishlar baho beriladi.

Gorizontal tahlilida esa moliyaviy natijalarning bo'ylamasiga tarkiblanishi va ularning o'zgarishlari o'rganililadi.

Asosli yoki trend tahlilida moliyaviy natijalar va ularning yillir bo' icha o'zgarishi, dinamikasi yoki asos yiliga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi.

Moliyaviy natijalar tahlili uchun zarur ma'lumotlar 2- shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi» hisobot va unga berilgan izohlardan olinadi.

Moliyaviy natijalarning shakllanish bo'yicha tahlilni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida berish mumkin.

2.3.1-jadval

Moliyaviy natijalarning shakllanishi bo'yicha tahlili

№	Moliyaviy natija	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi
1	Asosiy faoliyatdan foyda	12546	14523	+2067
2.	Moliyaviy faoliyatdan natija	2534	1425	-1109
3.	Favqulodda holatlardan natija	789	154	-635
	Jami hisob foydasi	14291	15794	+1503

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki korxona soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda summasi yoki jami foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 1503 ming so'mga o'sgan. Jumladan, asosiy faoliyatdan olingan foyda summasining o'tgan yilga nisbatan o'sishi 2067 ming so'mga, moliyaviy faoliyatdan olingan foyda summasi 1109 ming so'mga kamaygan. Favqulodda kutilmagan holatlardan olingan zarar summasi esa o'tgan yilga nisbatan 635 ming so'mga kam bo'lgan.

Moliyaviy natijalarning asosiy qismi mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olinganligi sababli tahlilda asosiy e'tibor ushbu qatorning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi va omillar ta'siriga qaratiladi.

Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan moliyaviy natija mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulot ish va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxini chegirish asosida aniqlanadi. Tahlilda sotishning uchta qatori xarakterlanadi.

- mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan moliyaviy natija.
- asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va sotishdan natija.
- boshqa aktivlarni sotishdan olingan natija.

Ular ni buxgalteriya hisobida aloxida hisob ob'ekti yoki daromadlarning yuzaga chiqish shakli yoki o'rni sifatida tarkiblanishi belgilangan. Bunda asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi va sotilishi, boshqa aktivlarni sotishdan olingan natijalar asosiy ishlab chiqarishning boshqa jarayonlari sifatida qaraladi. Ular ni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda operasion daromadlar va xarajatlar qatori ko'rsatilishi tartiblangan.

Davr xarajatalari tarkibiga mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xo'jalik sarflari kiritiladi. Ular ni yuzaga chiqish shakli va o'rniga qarab quyidagilarga ajratish mumkin.

- sotish xarajatlari
- ma'muriy xarajatlar
- boshqa umumxo'jalik xarajatlari

Sotish xarajatlari «Mahsulot (ish bajarish, xizmat ko`rsatish) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, Mahsulot (bajarilgan ish, ko`rsatilgan xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to`g`risidagi Nizomga muvofiq yagona tartiblashni va to`g`ridan-to`g`ri korxona faoliyat natijaviyligi bog`lanishi tartiblangan.

Sotish xarajatlari mahsulotlarni xaridor va buyurtmachilarga ortib jo`natish va sotish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlarni o`z ichiga oladi.

Sotish xarajatlarni ish haqi xarajatlari, ish haqidan ajratmalar, material xarajatlari, asosiy vositalar va nomaterial aktivlar amortizasiyasi, reklama xarajatlari, ish va xizmatlar, boshqa xarajat moddalari bo`yicha tarkiblash va tahlil etish mumkin. Sotish xarajatlarining qoplanishi korxonaning dastlab hisob foydasidan amalga oshiriladi. Ma`muriy xarajatlar qatoriga korxona boshqaruvi bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar kiritiladi va ularning korxona sarflari tarkibidagi salmoyoi sezilarli ulushni tashkil etadi. Bu bevosita rahbarlar va boshqaruv apparatini xizmati xarajatlari.

Boshqa umumxo`jalik xarajatlari qatoriga yuqoridagi tarkibga kiritilmagan xarajatlar ishlab chiqarishni takomillashtirish, o`zlashtirish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar kiritiladi.

2.3.2-jadval

Davr xarajatlari tahlili

№	Ko`rsatkichlar	O`tgan yil		Hisobot yili		Farqi	
		Summa	Foiz	Summa	Foiz	Summa	Foiz
1.	Sotish xarajatlari	1541	72,8	1926	72,4	385	-0,4
2.	Ma`muriy xarajatlar	452	21,4	558	21,0	106	-0,4
3.	Boshqa umumxo`jalik xarajatlari	123	5,8	177	6,6	54	+0,8
4.	Jami davr xarajatlari	2116	100	2661	100	545	x

Korxona davr xarajatlari o`tgan yilning shu davriga nisbatan +545 ming so`mga o`sgan. Jumladan Sotish xarajatlari bo`yicha mutlaq o`zgarish +385 ming

so`mni, ma'muriy xarajtalarning o`zgarishi +106 ming so`mni tashkil etgan.

Operasion jarayonlardan olingan daromadlar korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan tashqari faoliyatidan olinadigan daromadlar kiritiladi Ular bo'yicha xarajatlar va daromadlar qatori aloxida tarkiblangan holda umumiy summada moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tushiriladi. Operasion daromadlar va xarajatlar o'zining sof qiymati bo'yicha ham moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tushirilishi belgilangan. Bunda operasion jarayonlardan olingan daromadlar ular bo'yicha xarajatlar qiymatiga farqlangan holda hisobotga foyda yoki zarar qatoriga tushiriladi.

2.3.3-jadval

Operasion daromadlar va xarajatlar tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		Farqi	
		Foyda	Zarar	Foyda	Zarar	Foyda	Zarar
1	Asosiy vositalarni sotishdan olingan natija	123	-	234	-	+111	-
2	Xo'jalik inventarlarini sotishdan olingan natija		21	32	-	+32	21
3	Valyuta mablag'larini sotishdan olingan natija	154	-	78	-	-76	-
4	Mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan natija	276	-	180	-	-96	-
5	Materiallarni sotishdan olingan natija	145	-	90	-	-55	-
6	Qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan natija	34	-	65	-	+31	-
7	Nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan natija	-	-	34	-	+34	-
	Jamisi	732	21	713	-	-19	-21

Korxonada operasion jarayonlardan olingan foyda summasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 ming so'mga kamaygan. Joriy davrda operasion jarayonlardan olingan zarar summasi bo'lmagan. Korxona uzida ortiqcha bo'lgan asosiy vositalarni sotishdan 111 ming so'm darajasida foyda o'sishiga erishgan. Qolgan barcha ko'rsatchichlar bo'yicha oldingi yilga nisbatan kamayish ro'y bergan. Shuningdek qimmatli qog'ozlar va nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan foyda summasi ham oldingi yilga nisbatan bir qadar o'sishiga erishilgan.

Moliyaviy faoliyatdan olingan natija korxona faoliyat natijaviyligining alohida hisob qatori sifatida tarkiblanadi va tahlil etiladi. Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zararlar korxonaning fond bozori, moliya bozoridagi faoliyatidan keladigan natijalarni o'z ichiga oladi. Tahlilda ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga mutloq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Ta'sir etuvchi omillar har bir tarkib qator bo'yicha alohida va umumiy asosda o'rganiladi.

Tahlil uchun zarur bulgan ma'lumotlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi moliyaviy hisobotdan va uning qatorlari bo'yicha berilgan izohlardan olinadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarning quyidagi:

- sho'ba va assosiasiyalangan korxonalardan olingan dividendlar;
- boshqa olingan dividendlar;
- sho'ba va assosiasiyalangan korxonalarga berilgan va olingan qarzlar bo'yicha foizlar;
- boshqa olingan va berilgan qarzlar bo'yicha foizlar;
- valyuta kursining o'zgarishidan farqlar;
- moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar va yo'qotishlar.

2.3.4-jadval

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va yo`qotishlar tahlili

№	Ko`rsatkichlar	O`tgan yil		Hisobot yili		Farqi	
		Foyda	Zarar	Foyda	Zarar	Foyda	Zarar
1	Sho`ba va assosiasiyalangan korxonalardan olingan dividendlar	23	-	34	-	+11	-
2	Boshqa olingan dividendlar	12	-	-	-	-12	-
3	Sho`ba va assosiasiyalangan korxonalarga berilgan va olingan qarzlar bo`yicha foizlar.	14	-	21	-	+7	-
4	Boshqa olingan va berilgan qarzlar bo`yicha foizlar.	-	43	-	65	-	+22
5	Valyuta kursining o`zgarishidan farqlar.	56	-	78	-	+22	-
6	Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar va yo`qotishlar.	22	-	47	-	+25	-
	JAMI	127	43	180	65	+53	+22

Korxona moliyaviy faoliyatdan olingan foyda o`tgan yilning shu davriga nisbatan 53 ming so`mga o`sgan. Zarar summasi esa 22 ming so`mga ortgan.

Moliyaviy faoliyatdan olingan sof natija o`tgan yil 84 ming so`mni tashkil etgan holda hisobot yili 115 ming so`mni tashkil qilgan.

Favqulodda foyda va zararlar moliyaviy natijaviylikning uchinchi tarkib qatori hisoblanadi. Uning qatoriga bevosita tasodifiy holatlardan ko`riladigan natijalar kiritiladi. Masalan Suv toshqini yoki yer qimirlashi, yengin oqibatida, bo`ronlar oqibatida yoki boshqa tabiat hodisalari asosida ro`y beradigan yo`qotishlar kiritiladi.

Korxona hisob foydasi yoki soliq to`loviga qadar bo`lgan foyda (zarar) summasidan foyda daromaddan soliqlar va boshqa foydadan soliqlar, to`lovlar va

ajratmalarni chegirish asosida korxonaning joriy davr bo'yicha sof foyda (zarar) summasi aniqlanadi. Respublika soliq qonunchiligiga muvofiq barcha xo'jalik hisobidagi korxonalar daromad solig'i to'lovchilari hisoblanadi va ularning ayrim guruhi bo'yicha doimiy va vaqtinchalik imtiyozlar belgilangan.

Boshqa solikli to'lovlar qatoriga Respublika va mahalliy budjetga tushadigan ayrim turdagi soliqlar kiritiladi. Ularning turi va undirish tartibi Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi. YAgona soliq to'loviga o'tgan korxonalarda ushbu soliq turi olingan daromaddan kat'iy stavkalarda hisoblanadi va to'lanadi.

2.3.5-jadval

Soliq to'loviga qadar foyda va uning omilli tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi
1	Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan	4597	3726	-871
2	Umumxo'jalik faoliyatidan	4611	3738	-873
3	Soliq to'loviga qadar foyda	4611	3738	-873

Korxona soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 873 ming so'mga kamaygan. Bu o'zgarish asosan asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foyda summasining 871 ming so'mga kamayishi natijasida ro'y bergan

2.3.6-jadval

Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi
1	Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda	+1254	+2541	+1287
2	Davr xarajatlari	-254	-325	-71
3	Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va yo'qotishlar	+215	-123	-338
4	Moliyaviy faoliyatdan foyda va zararlar	+89	+126	+37

2.3.6-jadvalning davomi

№	Ko`rsatkichlar	O`tgan yil	Hisobot yili	Farqi
5	Favqulodda foyda va zararlar	-	-21	-21
6	Soliqlar	-241	-321	-81
7	Sof foyda	+1063	+1877	+814

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki korxona sof foydaning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi +814 ming so'mni tashkil etgan.

Uning o'zgarishiga har bitta ko'rsatkichning ta'sirini farq qatoriga qarab baholash mumkin. Masalan mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'tgan yilga nisbatan 1287 ming so'mga o'sishi sof foyda summasining shuncha o'zgarishiga olib kelgan. Davr xarajatlari, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan zararlar summasining, favqulodda zararlar summasining, foydadan soliqlar summasining o'tgan yillarga nisbatan o'sishi natijasida korxona sof foydasi o'tgan yilga nisbatan 511 ming so'mga kamaygan.

Barcha omillar ta'sirida sof foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 814 ming so'mga o'sishiga erishilgan. Demak korxonada foydani o'stirish yuzasidan 511 ming so'mlik ichki rezerv mavjud deyish mumkin. Agar korxona ushbu qatorlar bo'yicha o'zining oldingi yil ko'rsatkichlarini saqlaganda edi yana qo'shimcha tarzda shuncha foyda olishi mumkin edi.

Korxona faoliyat natijaviyligi baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Rentabellik korxona foydalik darajasini xarakterlaydi. Odatda uning bir necha turlari hisob kitob qilinadi. Bu bevosita mulkning shakli bo'yicha daromadlarning yuzaga chiqish o'zni yoki bazasi bo'yicha, foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar bo'yicha yoki mustaqil birliklar bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Rentabellikning xalq xo'jaligida quyidagi turlari aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan rentabellik

sof foyda

$$R = \frac{\text{sof foyda}}{\text{Ishlab chiqarish xarajatlari}} \times 100\%$$

Ishlab chiqarish xarajatlari

Ushbu ko'rsatkich bir so'mlik ishlab chiqarish xarajati hisobiga olingan foyda summasini xarakterlaydi.

Asosiy vositalar rentabelligi

Asosiy vositalar rentabelligi har bir so'mlik yoki ming so'mlik asosiy vosita hisobiga to'g'ri keladigan foyda summasini xarakterlaydi. Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Sof foyda

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}} \times 100\%$$

Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati

Sotish bo'yicha rentabellik. Sotish bo'yicha rentabellik sotilgan mahsulotlarning foydalik darajasini xarakterlaydi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan olingan yalpi foyda summasini mahsulotlarni sotishdan olingan tushumga bo'lish asosida aniqlanadi. Ya'ni

Sotishdan olingan foyda

$$R = \frac{\text{Sotishdan olingan foyda}}{\text{Sotishdan olingan tushum summasi}} \times 100\%$$

Sotishdan olingan tushum summasi

Oborot aktivlar rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich oborot aktivlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan foyda, sof foyda summasini xarakterlaydi.

Oborot aktivlar rentabelligi olingan sof foyda summasini oborot aktivlarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Sof foyda

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Oborot aktivlar o`rtacha yillik qiymati}} \times 100\%$$

Oborot aktivlar o`rtacha yillik qiymati

Jami mulk rentabelligi. Ushbu ko`rsatkich korxona mulkining foydalilik darajasini xarakterlovchi asosiy ko`rsatkich hisoblanadi. Bu ko`rsatkich har bir so`mlik mulkka to`g`ri keladigan sof foyda summasini ifodalaydi.

Sof foyda

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxona mulki jami}} \times 100\%$$

Korxona mulki jami

O`z mablag`lari rentabelligi. Ushbu ko`rsatkich korxonaning o`ziga tegishli bo`lgan mablag`larning foydalilik darajasini xarakterlaydi.

Korxona sof foydasini uning o`zlik mablag`lari manbaiga bo`lish asosida o`zlik kapitalining foydalilik darajasi o`rganiladi.

Sof foyda

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxona o`zlik mablag`lari}} \times 100\%$$

Korxona o`zlik mablag`lari

Qarz mablag`lari rentabelligi. Ushbu ko`rsatkich korxona sof foydasini qarzga olingan mablag`lariga nisbati asosida aniqlanadi. Bu ko`rsatkich har bir so`mlik qarz mablag`iga to`g`ri keladigan foyda summasini ifodalaydi.

Sof foyda

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Qarz mablag`lari jami}} \times 100\%$$

Qarz mablag`lari jami

Asosiy vositalar va moddiy oborot mablag`lari rentabelligi. Ushbu ko`rsatkich sof foyda summasini korxona asosiy vositalari va moddiy oborot mablag`lari o`rtacha yillik qiymatiga bo`lish asosida aniqlanadi. U har bir so`mlik

asosiy va oborot mablag`iga to`g`ri keladigan foyda summasini xarakterlaydi.

Sof foyda

$$R = \frac{\text{Asosiy va oborot mablag`lari o`rt.yil. qiym.}}{\text{Asosiy va oborot mablag`lari o`rt.yil. qiym.}} \times 100\%$$

Asosiy va oborot mablag`lari o`rt.yil. qiym.

2.3.7-jadval

Rentabellik tahlili

№	Ko`rsatkichlar	O`tgan yil	Hisobot yili	Farqi
1	Mahsulot sotishdan sof tushum	125987	152485	+26498
2	Sotilgan mahsulot tannarxi	102574	135425	+32851
3	Sotishdan olingan foyda	23413	17060	-6353
4	Sof foyda	2589	3125	+5365
4	Asosiy vositalar o`rtacha yillik qiymati	5213	5632	+419
5	Oborot mablag`lari o`rtacha yillik qiymati	8752	9521	+769
6	Korxona mulki	15562	17892	+4330
7	O`zlik mablag`lari	8542	8965	+423
8	Qarz mablag`lari	2546	3212	+670
9	Mahsulot rentabelligi	18,6	11,2	-7,4
10	Asosiy vositalar rentabelligi	49,6	55,4	+5,8
11	Oborot mablag`lar rentabelligi	29,6	32,8	+3,2
12	Ishlab chiqarish tannarxi rentabelligi	22,8	12,6	-10,2
13	O`z mablag`lari rentabelligi	30,3	34,8	+4,5
14	Jami mulkka nisbatan rentabellik	16,6	17,5	+0,9
15	Umumiy rentabellik	18,5	20,6	+2,1
16	Qarz mablag`lari rentabelligi	101,7	97,2	-4,5

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki korxonada rentabellik ko`rsatkichlari o`tgan yilga nisbatan bir qadar o`sgan. Faqat mahsulot rentabelligi,

ishlab chiqarish tannarxi va qarz mablag`lariga nisbatan rentabellik ko`rsatkichlari bo`yicha o`tgan yilga nisbatan pasayish kuzatilgan.

Asosiy vositalar rentabelligi 5,8 % ga, oborot aktivlari rentabelligi (moddiy) 3,2 % ga, o`z mablag`lari rentabelligi 4,5% ga, jami aktivlar rentabelligi 0,9% ga , umumiy rentabellik 2,1 % ga o`sgan.

Rentabellik o`zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Rentabellik o`zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ularda qatnashuvchi birliklarga nisbatan belgilash mumkin. Masalan mahsulotni sotishga nisbatan rentabellik o`zgarishiga sotishdan olingan yalpi foyda summasining o`zgarishi va sotishdan olingan tushumlar summasining o`zgarishi ta'sir etsa, asosiy vositalar rentabelligiga korxona sof foydasining o`zgarishi va asosiy vositalarning o`rtacha yillik qiymatining o`zgarishi, umumiy rentabellikka bir so`mlik tushumga to`g`ri keladigan sof foyda summasining o`zgarishi, asosiy vositalar qaytimining o`zgarishi va moddiy oborot mablag`lar qaytimining o`zgarishlari ta'sir qiladi va h.k. Rentabellik o`zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ham aniq ko`rish mumkin.

2.3.8-jadval

Asosiy vositalar rentabelligi va uning o`zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko`rsatkich	O`tgan yil	Shartli ko`r-satkich	Hisobot yili	Jami o`zgarish	Shu jumladan	
					Foyda hisobiga	Asosiy vositalar qiymatining o`zgarishi hisobiga
Rentabellik	49,6	59,9	55,4	+5,8	+10,3	-4,5

Korxonada asosiy vositalar rentabelligi o`tgan yilga nisbatan 5,8 foizga o`sgan. Bu o`zgarish quyidagi omillar hisobiga ro`y bergan. Foyda summasining o`zgarishi hisobiga asosiy vositalar rentabelligi +10,3 foizga o`sgan. Lekin asosiy vositalar yillik o`rtacha yillik qiymatining o`zgarishi hisobiga rentabellik –4,5 foizga kamaygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonuni. 1996. 30 avgust.//O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, Toshkent:1996.
2. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni (YAngi tahrirda). // O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, Keyingi o'zgarish va qo'shimchalar bilan. Toshkent: 2009.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.:O'zbekiston, 2009.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.:O'zbekiston, 2010.
3. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Halq so'zi. 2011 yil 22 yanvar.

3. Kitob va turkum nashrlar

1. Barxatov A.P. Buxgalterskiy uchyot vneshneekonomicheskoy deyatelnosti. M.:«Dashkov i K», 2004 g. – 304 s.
2. Veshunova N.A. Buxgalterskiy uchet. – M.:Finansy i statistika, 2006.- 642 s.
3. Grigoruk N.E. Statisticheskii uchyot vneshnetorgovyx operatsiy: mejdunarodniy opyt i rossiyskaya praktika. – M.:MGIMO-Universitet 2004. – 152 s.
4. Dmitrieva I.M. Buxgalterskiy uchet i audit. – M.: Finansy i statistika, 2006. –

272 s.

5. Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot. – T.: Moliya, 2007. – 100 b.
6. Zavalishina I. Yangicha buxgalteriya hisobi. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004. – 476 b.
7. Kondrakov N.P. Buxgalterskiy uchët: Uchebnoe posobie. - M: INFRA-M, 2007. - 717 s.
8. Kulikova L.I. Uchetnaya politika organizatsii: novoe reshenie. - M.: Buxgalterskiy uchët, 2010. – 336 s.
9. Lukina A.V. Marketing. – M.: Forum. INFRA-M, 2006. – 224 s.
10. Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004. – 10 b.
11. Pugachyov V.V. Vnutrenniy audit i kontrol. Organizatsiya vnutrennego audita v usloviyax ekonomicheskogo krizisa: ucheb. – M.: Delo i Servis, 2010. – 224 s.
12. Suglobov A.E. Mejdunarodnye standarty audita v regulirovanii auditorской deyatel'nosti. - M.: Ekonomist, 2007. - 256 s.
13. Teplyakov A.B. Oformlenie pervichnyx dokumentov v buxgalterskom uchete i nalogooblojenii. - M.: Gross Media Verlag, 2007. - 304 s.
14. Utkina S.A. Sostavlenie buxgalterskix provodok v organizatsiyax raznyx otrasley: prakt. posob. – M.: Omega-L, 2010. – 259 s.
15. Chasova O. V. Finansoviy buxgalterskiy uchët. - M.: Finansy i statistika, 2007. - 544 s.
16. Shadilova S.I. Osobennosti vedeniya buxgalterskogo ucheta s primeneniem MSFO. - M.: IKS «Delo-servis», 2007. - 320 s.
17. Kondrakov N.P., Kondrakov I.N. Buxgalterskiy uchët na mal'yx predpriyatiyax: uchebnoe posobie. - M.: Prospekt, 2010. – 640 s.
18. Podolskiy V.I., Savin A.A. Audit: uchebnik. 3-e izdanie. - M.: YUrayt, 2010. – 605 s.
19. Tulaxodjaeva M.M., Ilxamov SH.I. Audit. O'quv qo'llanma. T. 2005. – 160 b.

20. Umurzakov U.P., Abduraximov I.L. Suv xo`jaligi menejmenti. T.:«Iqtisod-moliya», 2008. – 60 b.
21. SHeremet A.D., Suys V.P. Audit: Uchebnik. – M.: Infra-M, 2005. 448 s.
22. Karimov A.A., Islomov F.R., Avlokulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. - T.: SHarq, 2004. - 592 b.
23. Kulinina G.V., SHalashova N.T., YUshkova S.D. Uchyot, analiz i audit vneshneekonomicheskoy deyatelnosti organizasiy: Uchebnoe posobie. - M.: Izd-vo «Buxgalterskiy uchet», 2006. – 296 s.
24. Podolskiy V., Savin A., Sotnikova L. Audit: uchebnik dlya vuzov. - M.: YUNITI - DANA, Audit, 2004.- 583 s.
25. Juraev T., Xaydarov SH., Ortikov X., Zavalishina I. Buxgalteriya hisobining yangi schyotlar rejasiga o`tish bo`yicha amaliy tavsiyalar. - T.: «Iqtisodiyot va huquq; dunyosi» nashriyot uyi, 2004. - 80 b.
26. Suvorova S. P., Parushina N.V., Galkina ye.V., Kovaleva A. M. Osnovy vnutrifirmennoy standartizatsii auditorской deyatelnosti: uchebnoe posobie. - M.: ID «Forum» - INFRA-M, 2007. - 336 s.
27. Erjenov M.S. i dr. Audit-1. – Almaty: 2005. – 382 s.
28. Podolskiy V.I., Polyak G.B., Savin A.A. i dr. Audit: Uchebnik dlya vuzov. – M.:YUNITI-DANA, 2007. – 186 b.
29. Sorokina ye.M. i dr. Buxgalterskiy (finansoviy) uchet: voprosy, testy i zadachi: ucheb. posob. – M.: FiS, 2010. – 160 s.